

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
TEXNIKA UNIVERSITETI**

**SOHA IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI FANIDAN**

**Amaliy mashg 'ulotlar, uslubiy ko'rsatmalar**  
(Konchilik ishi, metallurgiya va geologiya qidiruv  
ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun )

**Tuzuvchilar:** Saidova G.A., Ishmuxamedova M.X. , Ibragimova K.S. Soha iqtisodiyoti va menejment. Amaliy uslubiy ko‘rsatma .- Toshkent: ToshDTU, 2020.

“Soha iqtisodiyoti va menejmenti” fani bo‘yicha tayyorlangan mazkur uslubiy ko‘rsatmada amaliy mashg‘ulotlar mavzulari tarmoq korxonalari amaliyotida qo‘llaniladigan asosiy va aylanma fondlardan foydalanish ko‘rsatkichlari, tannarxni shakllanishi, foya va rentabellikni aniqlash kabi korxona iqtisodiyotining muhim masalalari keltirilgan. Shuningdek, uslubiy ko‘rsatmada korxona ishlab chiqarishini rejalashtirish va boshqarish bo‘yicha misol va masalalar keltirilgan hamda ularning yechimllari berilgan.

Mazkur masalalar to‘plami oliy o‘quv yurtlarini geologiya, konchilik ishi va metallurgiya sohalari boyicha o‘qiyotgan barcha talim yo‘nalishlari talabalariga mo‘ljallangan.

ToshDTU ilmiy-uslubiy kengashi (24.06.2020 10-bayonnomasi) qaroriga asosan chop etildi.

**Taqrizchilar:** Kim T.V. – O‘zMU «Iqtisodiyot nazariyası»  
kafedrasi dotsenti, Ph.D  
Buranova M.A. - ToshDTU, “Sanoat iqtisodiyoti”  
kafedrasi dotsenti, i.f.n.

## Kirish

Bozor islohotlarining huquqiy negizi tobora mustahkamlanib borayotgan davrda "Harakatlar strategiyasi"da mujassam etilgan eng muhim jihatlar, ya'ni davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, sud-huquq, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar va tinchlik-farovonlik, osoyishta hayot, xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha beshta ustuvor yo'nalishda aniq muddatga mo'ljallangan tom manodagi dastur hisoblanadi. Bunday sharoit Soha iqtisodiyoti va menejmenti fani oldiga yangidan - yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish va shu asosda jamiyat azolarining moddiy va Ma'naviy farovonligini taminlashda iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i bo'lган sanoatning mavqeい alohida o'rин egallaydi. Ana shu juda muhim soha iqtisodiy asoslarining ham nazariy, ham amaliy mohiyati va ahamiyatini tushunadigan, bu boradagi barcha yangiliklar va tashkiliy o'zgarishlarni his eta oladigan iqtisodchilarni tayyorlashda "Soha iqtisodiyoti va menejmenti" fani alohida ahamiyat kasb etadi.

Korxonalar barqarorligi ko'p jihatdan iqtisodiy faoliyatning holatiga, ya'ni ishlab chiqarishni rejalashtirish va tashkil etish va boshqarish usullari, mehnatga haq to'lash, bozor talablariga o'z vaqtida javob berish, texnik va investitsion qaror qabul qilishda yanglishmaslik va hokazolarga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarishda bu masalalarni hal etish nechog'lik to'g'ri va samarali amalga oshirilishiga korxona va uning har bir xodimi hamda butun davlatning ravnaqi va gullab - yashnashi ham bog'liq bo'ladi.

Fanning asosiy maqsadi ilm toliblarda zamonaviy iqtisodiy fikrlashni, mamlakat milliy ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish tizimida sanoat majmuining omini tavsiflash, milliy iqtisodiyot va aholining sanoat mahsulotlariga bo'lган ehtiyojlarini to'laroqqondirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish va sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaruriyati to'g'risidagi umumlashgan tasavvurni shakllantirishdan iborat.

"Soha iqtisodiyoti va menejmenti" fani talabalarga nafaqat muayyan axborot, ma'lumotlar, bilim va ilm berishi, balki ularni o'z yo'nalishlarini to'g'ri tanlab olishga, murakkab iqtisodiy muammolar yechimini topa bilishga o'rgatishi kerak.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirish va shu asosda jamiyat azolarining moddiy va

Ma'naviy farovonligini ta‘ minlashda sanoatning mavqeい alohida o‘rin egallaydi. Ana shu juda muhim soha iqtisodiy asoslarining ham nazariy, ham amaliy mohiyati va ahamiyatini tushunadigan, bu boradagi barcha yangiliklar va tashkiliy o‘zgarishlarni his eta oladigan mutaxassislarni tayyorlashda “**Soha iqtisodiyoti va menejmenti**“ fanining roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Talabalarining bu fan bo‘yicha bilim va malakalarini shakllantirishning asosini ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil ishlar, ilmiy-tadqiqotlardagi ishtiroki tashkil etadi.

## **1- amaliy mashg‘ulot. Korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakllari (2 soat)**

**Mashg‘ulot maqsadi:** Korxonalar mohiyati va faoliyatning asoslari, korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakllari, korxona faoliyatining ichki va tashqi muhitiga ta’sir etuvchi omillarini yoritib berish.

### **ESSE**

Esse - taklif etilgan mavzuga 1000 dan 5000 gacha so‘z hajmidagi insho.

Esse - bu muallifning shaxsiy nuqtai nazarini yozma ravishda erkin ifoda etish shakli; qandaydir predmet bo‘yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o‘z ichiga oladi.

Besh daqiqalik esse

Besh daqiqali esse - o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida o‘quv mashg‘ulotida oxirida 5 daqiqa oralig’ida olib boriladi.

### **1.1-jadval**

#### **Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlarning turlari bo‘yicha taqsimlanishi**

Ko‘rsatkichlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Jami Shu jumladan:	298,9	301,6	295,3	296,3	299,3	308,4	311,2
Kichik korxonalar	21,4	24,1	23,3	22,6	22,7	22,7	22,9
Mikrofirmalar	225,1	224,5	219,6	221,2	224,2	233,6	238,7
boshqalar	52,4	53,0	52,8	52,5	52,4	52,1	52,6

### **1.2-jadval**

O‘zbekistonda mulk shakllari bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar sonining o‘zgarish dinamikasi (yil boshiga, fermer xo‘jaliklarisiz )

Ko‘rsatkichlar	Yillar						2019y 2000 yilga nisbatan o‘sish
	2000	2015	2016	2017	2018	2019	
Jami Shu jumladan:	178,3	301,6	295,7	296,3	308,4	311,2	1,73
Fuqarolar xususiy mulki	75,5	102,0	95,7	90,5	78,4	79,4	1,04
Aksiyadorlik jamiyatlari	1,9	,0	1,0	0,9	0,7	0,6	-0,63


Chet el fuqarolari va tashkilotlar qo'shma korxonalar	3,1	4,7	4,8	4,9	5,2	5,3	1,68
Boshqa nodavlat mulk shakillari	79,2	154,5	154,7	160,6	185,6	188,3	2,34

1.1 va 1.2-jadvallarga izoh bering.

### 1.3-jadval

#### B.B.B. usuli asosida bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar

	Tushuncha	bilaman “Q”, bilmayman “-”.	bildim “Q”, bila olmadim “-”.
1	Konsern		
2	Konsorsium		
3	Xo'jalik assotsiatsiyasi		
4	Korporatsiyalar		
5	Kartellar		
6	Sindikat		
7	Trestlar		
8	Xolding		
9	O'zbekistonda xususiy mulk shaklidagi korxonalar		



1.1.-rasm. Korxonani qayta tashkil etish

## **Mavzu bo‘yicha nazorat savollari**

<b>Savollar</b>	<b>Javoblar</b>
1.Yangi korxonani tashkil qilish tamoyillari.	
2.O‘zbekistonda xususiy mulk shaklidagi korxonalar	
3.Hajmiga ko‘ra korxonalar qanday turlarga taqsimlanadi?	
4.Korxonani tugatish sabablari kaysilar?	
5.Sanoat korxonalarining tasnifi.	
6.Korxona faoliyatini tugatish yoki qayta tashkil qilish deganda nimani tushunasiz?	
7.Korxonani yagona davlat reyestridan o‘tkazish uchun qanday hujjatlar talab kilinadi?	
8.Korxona tuzilmasini belgilab beruvchi omillar.	
9.O‘zbekiston Respublikasining “Korxonalar to‘g’risida”gi qonuni va uning mazmuni.	
10.Sanoat korxonalariga xos bo‘lgan belgilar.	
11.Bankrot korxonaga nisbatan ko‘llaniladigan tadbirlarni tushuntirib bering.	
12. Korxona tuzilmasini belgilab beruvchi omillar.	

### **Topshiriqlar:**

1. Sovutgich ishlab chiqaruvchi korporatsiya sindi ya’ni bankrot bo‘ldi va uni kir yuvish mashinalari ishlab chiqaruvchi korporatsiya sotib oldi. Bunda sovutgich ishlab chiqaruvchi korporatsiyaning hamma huquq va majburiyatlari uni sotib olgan kir yuvish mashinalari ishlab chiqaruvchi korporatsiyaga o‘tadimi?
  - aksionerlar bilan hisob-kitob qilish majburiyatları o‘tadi;
  - qarzlarni to‘lash majburiyati o‘tadi;
  - hech qanday majburiyat o‘tmaydi;
  - korporatsiya bitimlarini bajarish majburiyatları o‘tadi.
2. Kichik korxona o‘z faoliyatini boshlash uchun unga universitet binosidan joy va zarur bo‘lgan stol, stul, seyf va shunga o‘xshash narsalar ajratildi. Sababi, kichik korxona raxbariyatining taklifi universitet raxbariyatini qiziqtirdi.

Bunday sharoitda universitet quyidagilardan qaysi biri bo‘ladi?

- xususiy kreditor;
- davlat kreditori;
- firma olib borayotgan faoliyat sherigi;
- xususiy ishlab chiqaruvchi.

## **1-masala**

Korxonaning mulki 860 ming sh.p.b. ga ega. Likvidatsiya tufayli mulk taksimlanishi kerak edi. Kompanyonlar shunga kelishdilarki, Har birlari o‘rtasida mulk barobar taqsimlanadi, kim qachon korxonaga kirgandan boshlab. Korxonaga esa kompanyonlardan biri 6 yil avval asos solgan. Ma'lum bo‘ldiki, ulushning 3 tasi A kompanyonga tegishli, B kompanyonga 2 tasi, V kompanyonga 6 tasi tegishli ekan.

Savol: Har bir kompanyon qanchadan ulush tegdi. Har bir kompanyon necha yildan beri korxonaga ega bo‘lgan.

## **2-amaliy mashg‘ulot. Sanoat korxonalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish (2 soat)**

***Mashg‘ulot maqsadi:*** Korxona strategiyasining mazmuni va mohiyati, korxonalarining bozordagi strategiyasi, ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish strategiyasining shakl va bosqichlari, korxonaning tashkiliy tuzilmasi va uning samaradorlik mezonlari, korxona faoliyatini rejashtirish.

Iqtisodchi olimlar va amaliyotchilar marketing faoliyatida strategik qarorlar qabul qilish uchun yordami tegishi mumkin bo‘lgan bir qator modellar ishlab chiqqanlar. Ko‘pgina bazis strategiyalar bu modellar bilan bog’liq. Model aniq bir vaziyatdan kelib chiqib tanlanadi. O‘suvchi bozor sharoitida strategiyalarni yaratish uchun model taklif etiladi.

Boshlang’ich nuqta korxonaning haqiqiy va rejadagi rivojlanishi o‘rtasidagi farq yoki marjasи hisoblanadi. Bu korxona maqsadlari avvalgi strategiyalar yordamida amalga oshirilganini bildiradi. Bu vaziyatga yoki maqsadga o‘zgartirish kiritish yoki boshqa strategik yo‘llarni

qidirish lozim. O'suvchi bozor sharoitida Ansoff «mahsulot – bozor» deb ataladigan matritsa yordamida tuzgan.

## 2.1-jadval

### «Mahsulot – bozor » matritsasi (Ansoff matritsasi).

Bozorlar	Mavjud	Yangi
Mahsulotlar	Bozorlar	Bozorlar
Mavjud mahsulotlar	Bozorga chuqurroq kirib borish	yanada Bozor chegaralarini kengaytish
Yangi mahsulotlar	Mahsulotni Takomillashtirish	Diversifikatsiyalash

I.Ansoff matritsasi yordamida olinadigan asosiy strategik tavsiyalar quyidagidan iborat:

1. Bozorni takomillashtirish: mavjud mahsulotninng mavjud bozorlarda bozor ulushini barqarorlashtirish yoki oshirish yohud bozor hajmini kengaytirish maqsadida kuchaytirish.

Mumkin bo'lgan erishish yo'llari iste'molini oshirish (narxni tushirish, qadoqlash hajmini oshirish, sifat yo'qolishini kamaytirish), Haridorlarni raqobatbordosh mahsulotlarga qiziqtirish, iste'molni faollashtirish (reklama, sinab ko'rishni taklif etish, narxlarni tushirish).

2. Bozor chegaralarini kengaytirish: yangi bozorga eski mahsulotlar bilan chiqish. Mumkin bo'lgan variantlar: yangi mintaqaviy, milliy yoki xalqaro bozorga chiqish (baynalminallashtirish va globallashtirish); mahsulot vazifalarini oshirish; eski mahsulotga yangi hududlar ochish; mahsulotni iste'molchining belgilangan segment talablariga javob berishi uchun moslashtirish (bozorni segmentlash).

3. Mahsulotni rivojlantirish (innovatsiya): yangi bozorga eski bozorlarda yangi mahsulotlarning sotilishi. «Innovatsiya» tushunchasi quyidagi imkoniyatlar: asl innovatsiya (bozorda yangi); juda yangi mahsulotlar (eskilari bilan bog'liq); Me-too mahsulotlar (faqat korxona uchun yangi mahsulotlar)ni o'z ichiga oladi.

4.Diversifikatsiya: korxona ortiqcha faoliyat doirasidan ajrab, yangilariga o‘tadi. Sabablari: bozorlarning stagnatsiyaga uchrashi, xavf – xatarning kamayishi, moliyaviy natijalar, jamg’arma va iste’mol bazalarini sug’urtalashdan iborat. Ishlab chiqarish dasturi korxonaning oldingi mahsulotlar bilan xech qanday aloqasi bo‘lmagan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi. Diversifikatsiyaning uch turi mavjud:

- 1) o‘sha darajadagi diversifikatsiya (gorizontal) avtomobil korxonasi mototsikl chiqarishni yo‘lga qo‘yadi;
- 2) iste’mol va jamg’arish bozorlaridagi diversifikatsiya (vertikal) to‘qimachilik korxonasini ochadi;
- 3) lotereyali diversifikatsiya (moddiy o‘zaro aloqaning yo‘qligi), «Pepsi-Kola»ning sport buyumlarini ishlab chiqarishda qatnishishi. Diversifikatsiyaning asosiy xavfi kuchlarning tarqalib ketishi mumkinligidadir.

Raqobat matritsasi (Poter). Amerikalik olim Poter 1975–1980 yillarda o‘sish sur’atini pasayishi va sanoatning ko‘pchilik tarmoqlarning stagnatsiyaga uchrash davrida raqobat strategiyasi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Korxona diqqat markazida nafaqat Haridorlar ehtiyojini qondirish, balki bozordagi raqobat kuchlari ham turadi.

M.Poterning tadqiqotlari quyidagi xulosalarga olib keldi: avvalo katta bozor ulushiga ega bo‘lgan yirik korxonalar bir tomonidan va ikkinchi tomonidan, kichik ihtisoslashtirilgan korxonalar talab qilinadigan rentabellik darajasiga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.


Demak, o‘rta pozitsiya xavfi, bozorda yetakchilik qilishga erishish qobiliyati yoki mablag’lari yo‘q, barcha korxonalarga o‘z ishini belgilangan segmentda jamlab, raqobatchilarga nisbatan afzalliklarni barpo etish tavsiya etiladi.

Dastlabki holatning muhim tomonlarini oydinlashtirish baholash uchun asos raqobat matritsasidagi holatlardan qaysi biri korxonaga ko‘proq manfaat keltirishidir. Porter modeli, avvalo konsentratsiya, bozorning etilganlik darjasasi va jahon raqobatining intensivligi nuqtai nazaridan farq qiluvchi bo‘lingan, yosh va etilgan tarmoqlarning strategiyalarini

boshqarish uchun kerak.

### Poter strategiyasining afzalliklari:

kam xarajatlar mol yetkazib beruvchilarga afzallik yaratadi, baholarning ko‘tarilishi esa yetakchiga kamroq ta’sir qiladi;



## 2.1 - rasm. Raqobatni yuzaga keltiruvchi kuchlari.

«Bozor ulushi – bozor o‘sishi» matritsasi (portfolio – tahlil). Portfolio – tahlil yoki «bozor ulushi – bozor o‘sishi» matritsasi XX asrning 60 – yillari so‘ngida Amerikaning «Boston konsalting grupp» konsalting firmasi tomonidan ishlab chiqilgan. Bu model, asosan mahsulotning hayot sikliga va tajriba egri chizig’i konsepsiyasiga asoslangan (2.1-rasm).

Korxona tashkiliy tuzilmasi deganda, boshqaruv bo‘g’inlari va bosqichlari miqdori va tarkibi tushuniladi. Korxona tashkiliy tuzilmasining oddiy va tushunarli bo‘lishi uning ish qobiliyati yuqori bo‘lishini kafolatlaydi, ya’ni boshqaruv tashkiliy tuzilmasida bosqich va bo‘g’inlar qancha kam bo‘lsa, boshqaruv shunchalik samarali bo‘ladi.

Korxonaning tashkiliy tuzilmalar juda turli-tuman, lekin ular umumiylizchil bog’liqlikka ega va qonuniyatlarga buysunadi. Boshqarishning tashkiliy tuzilmasining asosiy turi chiziqli va funksional turlaridir. Ular birikishi asosida turli xil chiziqli-funksional tuzilmalar tarkib topadi<sup>1</sup>


Chiziqli tuzilma uning quyi boshqaruv bo‘g’inlari yuqori bosqichdagi rahbarga bevosita bo‘ysunushi bilan tavsiflanadi. Chiziqli tuzilmada har bir xodim bitta rahbarga buysunadi va yuqori tizim bilan faqat u orqali bog‘langan bo‘ladi. chiziqli tuzilmaning ijobiy tomonlari uning oddiy, ishonchli, kamHarjligidir. Har bir rahbar butun mehnat jamoasi faoliyati natijalari bo‘yicha javobgar. Bu strategik va joriy qarorlarni qabul qilish huquqi markazlashishiga olib keladi.

Chiziqli tuzilmalarni hal etiluvchi masalalar doirasi keng bo‘lmagan, bu masalalar yechilishi oson bo‘lgan hollarda qo‘llash maqsadga muvofikdir. Sof holda chiziqli boshqaruv juda kam, asosan, brigada, bo‘lim, shirkat, kichik korxonalarda qo‘llaniladi.


Funksional tuzilma - boshqaruv vazifalarining funksional bo‘g’inlar va rahbarlar o‘rtasida taqsimlanishiga asoslanadi. U boshqaruv murakkablashuvi va ixtisoslashuv rivojlanishi bilan bog’liq holda vujudga kelgan.

Funksional tuzilmada boshqaruvchi ko‘rsatmalar nisbatan malakali bo‘ladi, lekin yakka boshchilik tamoyiliga rioya qilinmaydi. Funksional bo‘g’inlar soni ortishi bilan har bir bo‘g’in mustaqil ravishda hal etuvchi masalalar doirasi torayib boradi. Muammoning mohiyati har bir bo‘g’in o‘z masalasini birinchi navbatda hal qilishdan manfaatdor bo‘lishida emas, balki bitta ham bo‘g’in bu masalani yetarli darajada asoslangan holda va to‘gri hal qila olmasligi, yyechimlar maydalashib, tulik bo‘lmay kolishidadir. Bu boshqaruvni marakkablashtirib, uning samaradorligini kamaytiradi.


### Chiziqli




### Funksional



## Chiziqli shtabli



## Chiziqli funksional



**2.3. - rasm. Shartli belgilar: R - rahbar, B - boshliq, U - usta, F - funksional rahbar, Sh - shtabli, 1,1; 1,2;1,3 - funksional bo‘limlar.**

Chiziqli tuzilmani tashkil etish va funksional tuzilmaning kamchiliklari qushma, biriktirilgan tuzilmalar - chiziqli-shtabli, chiziqli-funksional va boshqa tuzilmalar vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

## 2.2-jadval.

### Chiziqli funksional tuzilma ham o‘z afzallik va kamchiliklari

Afzalliklar	Kamchiliklari
<ul style="list-style-type: none"> <li>– ishchilar mutaxassisligi bilan bog’langan qaror va rejalarini chuqurlashtirilgan holda tayyorlash</li> <li>– bosh chiziqli menejerni muammoni chuqur tahlil qilishdan ozod qilish</li> <li>– maslahatchi va ekspertlardan foydalanish imkonи</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– ishlab chiqarish bo‘limlari arogori-zontal pog’onasidagi quyuq o‘zaro aloqa va o‘zaro harakatlarning yo‘qligi</li> <li>– tayyorlanayotgan qaror, odatda uni joriy etilishida ishtirok etmasligi uchun aniq javobgarlikning yo‘qligi</li> <li>– vertikal bo‘yicha o‘zaro ta’sirning haddan tashqari rivojlangan tizimi jumladan: boshqaruvning iyerarxiyasi bo‘yicha bo‘ysunishi ya’ni, haddan tashqari markazlashtirish</li> </ul>

## 2.3 jadval.

### **Chiziqli va funksional tuzilmasining afzallik va kamchiliklari**

Afzalliklar	Kamchiliklar
<p>1) aniq funksiyalarni amalgam oshirishga javob beradigan mutaxassislar iqtidorining yuqoriligi.</p> <p>2) chiziqli menejerlarni ayrim maxsus masalalarni hal etishdan ozod etish.</p> <p>3) hodisa va jarayonlarni standartlashtirish, rasmiylashtirish va dasturlash</p> <p>4) boshqaruvchilik funksiyalarning bajarilishini qaytarilish va paralelligiga yo‘l qo‘ymaslik</p> <p>5) keng miqyosdagi mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirish</p>	<p>1) “o‘z” bo‘linmalari masalalari va maqsadlarni amalgam oshirishga haddan tashqari qiziquvchanlik.</p> <p>2) turli xil funksional xizmatlar orasidagi doimiy o‘zaro aloqani ushlab turishning murakkabligi.</p> <p>3) haddan tashqari markazlashtirilishi</p> <p>4) qaror qabul qilishning cho‘zilib ketishi</p> <p>5) nisbatan tashkiliy shaklni o‘zgartirish qiyin bo‘lgan turg‘unligidir</p>

## 2.4-jadval.

### **Divizional tuzilma o‘z afzallik va kamchiliklarga ega.**

Afzalliklar	Kamchiliklar
<p>1. Bu firmani o‘sishining birdan-bir yo‘li</p> <p>2. Menejerlarni yuqori darajadagi mustaqilligi ular javobgarligini oshiradi</p> <p>3. Menejer bilimining kengligi</p>	<p>1. Faoliyatni qaytarilish ehtimoli bor</p> <p>2. Turli xil bo‘limdagi mutaxassislarning yetarli muloqotda bo‘lolmasliklari</p> <p>3. Bosh tashkilot bilan kuchsiz aloqasi</p>

## 2.5-jadval.

### Matritsali tuzilma ham o‘z afzallik va kamchiliklariga ega.<sup>2</sup>

Afzalliklar	Kamchiliklar
<ul style="list-style-type: none"> <li>– tashkilotning tez sodir bo‘lib tura-digan ichki va tashqi muhitga tezda e’tibor berish va moslashish imkonи bor</li> <li>– funksional tuzilmalar bilan faol o‘zaro ta’sirlanuvchi, dasturiy bo‘linmalarning shakllanishi hisobiga ma’muriy – boshqaruv ijodiy faolligini oshishi</li> <li>– turli xil ko‘rinishdagi mehnat fao-liyatini ixtisoslashtirish evaziga kadrlardan ratsional foydalanish</li> <li>– boshqaruvni markazlashtirish va rah-barlikning demokratik tamoyillarini kuchaytirish hisobiga faoliyat motivatsiyasini ko‘paytirish</li> <li>– loyiha ayrim masalalari bo‘yicha nazoratni kuchaytirish</li> <li>– ayrim huquqlarni vakillarga uzatish hisobiga yuqori pog’onadagi rahbarga bo‘lgan yuklanishni qisqartirish</li> <li>– dastur va uning tarkibiy element-larini bajarishdagi shaxsiy javobgarlikni oshirish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– topshiriqlarni belgilashda va ularni bajarish uchun ajratiladigan vaqt ni taqsimlash bilan bog’liq bo‘lgan ishlarni bajarishda paydo bo‘ladigan muammolarni kelib chiqishiga olib keluvchi bir-biriga bo‘ysunishdagi tuzilmali murakkabliklar</li> <li>– dastur rahbarlari orasidagi nosog’lom “ruh”ning ishtirok etishi</li> <li>– maqsadlar bilan bog’liq vazifalarni boshqarishdagi kuchlar “nisbati”ni doimiy nazorat qilish kerakligi</li> <li>– yangi dastur bo‘yicha ishslash uchun kerak bo‘lgan tajribani orttirishdagi qiyinchilik</li> </ul>

### **3-amaliy mashg'ulot.Ishlab chiqarish omillari va ishlab chiqarish jarayoni (2 soat)**

**Mashg'ulot maqsadi:** korxonaning ishlab chiqarish tizimi va uning asosiy elementlari, korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish printsiplari, turlari,

shakllari va usullari, korxonaning ishlab chiqarish quvvati va uni qisoblash usuli,optimal ishlab chiqarish hajmi va sotish , mahsulot sifati

Ishlab chiqarish jarayonida uning muhim elementlari - ishlab chiqarish vositalari va ish kuchi o'rtaida o'zaro aloqalar sodir bo'ladi. Ishlab chiqarish vositalari o'zining ish jarayonida bajaradigan roliga qarab, mehnat vositalari va mehnat buyumlariga bo'linadi.

Mehnat vositalari - inson mehnat buyumlariga ta'sir qiladigan va ularni o'zgartiradigan moddiy vositalar majmui. Ishlab chiqarish jarayonida inson moddiy boylik yaratish maqsadida ta'sir qiladigan barcha narsalar mehnat buyumlaridir.

Mehnat vositalari - asosiy fondlarni, mehnat buyumlari esa aylanma fondlarni tashkil etadi.

Ishlab chiqarish — bu, jamiyat a'zolarining yashashi, mamlakatning rivoji, taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish jarayonidir. Kishilik jamiyat tarraqqiyotining hamma bosqichlarida ishlab chiqarish bo'lgan va kelgusida ham bo'ladi. Jamiyat iste'mol qilmasdan tura olmaganidek, ishlab chiqarmasdan ham tura olmaydi. Ishlab chiqarish jamiyat miqyosida ro'y boradi. Ishlab chiqarish jamiyat miqyosida ro'y bergani tufayli uni ijtimoiy ishlab chiqarish deb ataydilar. Ijtimoiy ishlab chiqarshi o'zining bir-birini taqozo qiluvchi ikki tomoni - ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari bilan ifodalanadi. Ularning birligi ishlab chiqarish usulini tashkil etadi.

#### **Korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish prinsiplari, turlari, shakllari va usullari.**

Ishlab chiqarishni tashkil etish prinsiplarining uyqunlashuvidan kelib chiqib, ishlab chiqarishning 3 ta asosiy turini ajratish mumkin:

- ommaviy

- seriyali

- yakka tartibli.

Ishlab chiqarish turidagi farq birinchi navbatda ish o‘rinlarining ta‘minlanish Harakterida yoki boshqacha qilib aytganda ularning ixtisoslashganlik darajasida namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan barcha ish o‘rinlarini 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Bir xil detallar ustida bir xil operatsiyani bajarishga ixtisoslashgan ish o‘rinlari.
2. Bir nechta detallar ustida ma'lum bir ketma-ketlikda muntazam ravishda bir nechta doimiy operatsiyalarni bajaradigan ish o‘rinlari.
3. Turli detallar ustida turli vaqtda turli xil operatsiyalarni bajaradigan ish o‘rinlari.

**Ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish asosida samaradorlikni oshirishning eng muqim masalalari:**

1. Ishlab chiqarish jarayonlaridagi ayrim jarayonlarni operatsiyalarga ajratish va ularni sex, ishlab chiqarish uchastkalari, ishchi o‘rinlarga biriktirish.
2. Sex va ishlab chiqarish uchastkalari maydonlariga dastgohlarni ishchi o‘rinlarga mos holda joylashtirish.
3. Mehnat quollarini ishlab chiqarish jarayonidagi operatsiyalar bo‘yicha kuzatish tartibini belgilash qamda ishlab chiqarish jarayonlarining to‘lik yoki bir qismi maromini hisoblash.
4. Belgilangan texnologik jarayonlar va ularning o‘zaro bog‘liqligi, mehnat quollari harakati maromi va tartibiga qat’iy rioya qilish.
5. Korxona va ularning ishlab chiqarish bo‘limlarida ishlab chiqarish jarayonlarini borishini nazorat qilish va operatsion boshqarish.
6. Ishlab chiqarishni tashkil qilishni takomillashtirish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarish jarayonlari maromi buzilgan uchastkalarga tadbiq qilishdan iborat.

**Sanoatda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish 4 shaklda rivojlanadi:**

“ buyum jihatidan ixtisoslashda korxonalar tuzilishi va bajaradigan ishi bir xil bo‘lgan cheklangan tayyor mahsulot ishlab chiqaradi. Masalan: traktorlar, avtomobillar, dastgohlar va h.k.;

" detal jihatidan ixtisoslashishda korxonalar tayyor mahsulotning ayrim qismlarini va detallarni ishlab chiqaradi. Masalan: reduktorlar, podshipniklar, tishli qildirak va h.k.;

" texnologik jihatdan ixtisoslashishda korxonalar texnologik jarayonning alohida bosqichlarini bajaradi. Masalan: avtomatlashtirilgan detal kuyish, shtamplash va x.k.;

" yordamchi ixtisoslashgan korxonalar. Bular jumlasiga po'lat kuyish, temirchilik, asbob-uskuna ishlovchi korxonalar kiradi.

**Mahsulot sifati** - maqsadga muvofiq muayyan eqtiyojlarni qondirish uchun yaroqlilagini aniqlaydigan mahsulot xususiyatlarining to'plami. U ma'lum bir vaqtga o'rnatiladi va yanada ilqor texnologiyalar paydo bo'lishi bilan o'zgaradi.

Mahsulot sifat ko'rsatkichi sifat jihatidan ma'lum bir mulkning namoyon bo'lish darajasini raqamli ravishda tavsiflaydi. Mahsulot sifati - sifat jihatidan qisoblanadigan xususiyatlar to'plami. Umumiyligida qabul qilingan tasniflash o'nta ko'rsatkichdir.

1. Belgilangan ko'rsatkichlar - mahsulotlardan maqsadga muvofiq foydalanishning foydali ta'sirini tavsiflaydi va tayyor mahsulot qajmini aniqlaydi.
2. Ishonchlik ko'rsatkichlari - mahsulotning ishonchligi, saqlanishi, va mustaqamligi. Baholangan mahsulotlarning xususiyatlariga qarab, ishonchlikni tavsiflash uchun barcha 4 va ko'rsatilgan ba'zi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin.
3. Texnologik ko'rsatkichlar mahsulot ishlab chiqarish va ta'mirlashda yuqori mehnat unumдорligini ta'minlash uchun dizayn va texnologik yyechimlarning samaradorligini tavsiflaydi. Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash, mahsulotni ishlab chiqarish va ishlatalish jarayonida ommaviy ishlab chiqarish, materiallar, mablag'lar, mehnat va vaqt Xarajatlarini oqilona taqsimlashga erishish mumkin.
4. Standartlashtirish va birlashtirish ko'rsatkichlari - mahsulotlarni standart, birlashtirilgan va original komponentlar bilan to'yinganligi. Asl mahsulotlar qancha kam bo'lsa, ishlab chiqaruvchi qam, iste'molchi uchun qam shuncha yaxshi bo'ladi.

5. Ergonomik ko'rsatkichlar - insonning mahsulot bilan o'zaro munosabati va mahsulotni ishlatishda namoyon bo'ladigan insonning gigienik, antropometrik, fiziologik xususiyatlari to'plami.
6. Estetik ko'rsatkichlar - ma'lumotning ekspressivligini, shaklning ratsionalligini, kompozitsiyaning yaxlitligini, mahsulotni taqdim etishning mukammalligini va barqarorligini tavsiflaydi.
7. Tashish qobiliyatining ko'rsatkichlari - mahsulotlarning transportga moslashishini anglatadi.
8. Patent ququqi ko'rsatkichlari - mahsulotlarning patent sofligini tavsiflaydi va raqobatdoshlikni aniqlashda muhim omil qisoblanadi.
9. Ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish ekologik xavfli bo'limganda, odatda, masalan, televizorlar, kompakt-disklar mavjud bo'lganda atrof-muqit ko'rsatkichlari umuman bo'lmasligi mumkin. Bu mahsulotni ishlatish yoki iste'mol qilish paytida yuzaga keladigan zararli atrof-muhit ta'sirining darajasi.
10. Xavfsizlik ko'rsatkichlari - Haridor va texnik xizmat ko'rsatadigan xodimlarning xavfsizligi xususiyatlarini tavsiflaydi, ya'ni ular mahsulotlarni o'rnatish, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, saqlash, tashish, iste'mol qilish paytida xavfsizlikni ta'minlaydi.

#### **4- amaliy mashg'ulot. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari(2 soat)**

***Mahg'ulot maqsadi:*** Asosiy ishlab chiqarish fondlarining iqtisodiy mohiyat va ahamiyati, asosiy fondlar amortizatsiyasi va yemirilishi, asosiy ishlab chiqarish fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari, asosiy ishlab chiqarish fondlardan foydalanishni yaxshilash yo'nalishlari

Asosiy fondlarining saqlanish va ulardan foydalanish samaradorligi darajasini nazorat qilish uchun konchilik korxonalariga tegishli barcha asosiy fondlar, pul va natural hisobga olish, asosan uchastkalar, sexlar va korxonalar bo'yicha ishlab chiqarish dasturini tuzish, ularning ish natijalarini tahlil qilish uchun zarurdir. Asosiy fondlarning pul shakli asosiy fondlar umumiyligi qiymatini aniqlash, amortizatsiya ajratmalar miqdori va qayta tiklash uchun kerakli mablag'larni aniqlash uchun zarur.

Konchilik koxonalarida asosiy fondlar:

- a) dastlabki qiymat bo'yicha;
- b) qayta qoldiq qiymati bo'yicha hisobga olish va baholash usullari keng tarqalgandir.

Dastlabki qiymat bo'yicha asosiy fondlarni baholash va hisobga olish sotib olingan mehnat vositalarini yoki qurilishning mablag' sarflangan davrdagi bahoda aniqlangan qiymatini ko'rsatadi.

Fondlar dastlabki qiymati quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi.

$$F_d = X_0 + X_t + X_q$$

Bu yerda:

**X<sub>0</sub>**-uskunalarining sotib olingan bahosi,

**X<sub>t</sub>**-transport Xarajati,

**X<sub>q</sub>**-qurilish va montaj ishlarining qiymati.

Asosiy fondlarning dastlabki qiymati ba'zi kamchiliklarga ega. Mashina va uskunalar narxi, shuningdek, qurilish qiymatlari vaqt o'tishi bilan o'zgarishi sababli asosiy fondlar qiymati ularning sotib olingan yoki barpo etilgan vaqtiga ko'ra bir-biridan sezilarli darajada farqlanuvchi baholarda belgilanadi va bu hol asosiy fondlar dinamikasi haqida, ularning sifati va yemirilish darajasi haqida haqiqiy tushunchaga ega bo'lish imkonini bermaydi. Baho omilining buzib ko'rsatuvchi ta'sirini yo'qotish uchun asosiy fondlarni ularning hozirgi vaqtida qayta tiklash qiymati bilan baholashdan foydalaniladi.

Asosiy fondlarni dastlabki va qayta tiklash qiymati bo'yicha baholash ikki ko'rinishda, ya'ni to'la va qoldiq qiymat bo'yicha bo'lishi mumkin. To'la qiymat shu asosiy fondlarning ishlashi natijasida ularning tayyor mahsulotga o'tkazgan qiymati qismini hisobga olmaydi.

Qoldiq qiymat esa, asosiy fondlar dastlabki yoki qayta tiklanish qiymati bilan uning yemirilgan qismi qiymatining ayirmasiga tengdir:

$$K_k = F_d - \frac{N_a * F_d * T}{100}$$

Bu yerda:

**K<sub>k</sub>**-asosiy fondlarning qoldiq qiymati;

**F<sub>d</sub>**- asosiy fondlarning dastlabki qiymati;

**N<sub>a</sub>**-amortizatsiya ajratmalari me'yori;

**T**- asosiy fondlarning foydalanish vaqt, yillar.

Asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$F_{ort} = F_{yb} + \sum \frac{F_{t_j}}{12} - \sum \frac{F_{ch}(12-t_{ch})}{12}$$

Bu yerda:

$F_{yb}$ - asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati;

$F$ ,  $F_{ch}$  - rejalarshirilgan yilda ishga tushadigan va ishdan chiqadigan asosiy fondlar qiymati;

$t_i, t_{ch}$  - rejalarshirilgan yilda asosiy fondlar ishga tushadigan va ishdan chiqadigan oylar.

Kon qazib chiqaruvchi korxonalarda asosiy fondlar Xarajati ishdan chiqish koeffitsiyenti  $K_{hh}$  va yangilanish koeffitsiyenti bilan Harakterlanadi. Bu koeffitsiyentilar quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_{ch} = F_{ch/y.b} \quad Q_n = F_{y.b} / F_{n.g}$$

Bu yerda:

$F_{yo}$  - asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymati.

Asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$F_{y.o} = F_{yb} + F_t - F_{ch}$$

Asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayonida asta-sekin eskirib o‘z qiymatining ma’lum qismini amortizatsiya sifatida ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulot qiymatiga oz-ozdan o‘tkazib boradi va Xarajatlar sifatida mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Asosiy fondlar qiymatini to‘la tiklash uchun yillik amortizatsiya ajratmalarini quyidagi ifoda orqali aniqlash mumkun:

$$A.t.t = \frac{\mathbf{Fb} - \mathbf{Fqq}}{\mathbf{Mm}}$$

Bu yerda:

$A.t.t$ -asosiy fondlarni to‘la tiklash uchun yillik amortizatsiya ajratmalari, so‘m;

$F_b$  - asosiy fondlarning balans qiymatlari, so‘m;

$F_{aa}$ - asosiy yemirilgan fondlarni qoldiq qiymati, so‘m;

$M_M$ -asosiy fondlarni belgilangan me’yorlik bo‘yicha xizmat qilish muddati, yil.

Amortizatsiya ajratmasining miqdori hamda asosiy fondlarning qiymatidan kelib chiqqan holda, ularni to‘la tiklash me’yorlarini quyidagi formuladan foydalanib aniqlanadi:

$$A_{MTT} = \frac{A \cdot t \cdot t}{F_b} * 100$$

Bu yerda:

$A_{MTT}$ - asosiy fondlarni to‘la tiklash me’yori, %.

Asosiy fondlar amortizatsiya jamg‘armalari ularning har bir turi va o‘rtacha qiymati bo‘yicha belgilangan amortizatsiya me’yorlari asosida ularni to‘la qayta tiklash uchun alohida hisoblanadi.

Joriy nizomga muvofiq korxonalar asosiy fondlarini faol qismidan ularning ishlab turganligi, ta’mirlanayotganligi yoki bekor turganligidan qat’iy nazar amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi.

Konchilik korxonalarida kapital lahmlarining amortizatsiya ajratmalari ikki guruh bo‘yicha tonna stavkasida hisoblanadi.

Birinchi guruhga shaxta (rudnik)dan foydalanish davri davomida unga xizmat qiluvchi kon lahmlari va inshootlar kiradi (kapital transheyalar, shaxta Quduqlari, kapital shtolnyalar, kvershlaglar, kutargich mashinalar binolari, bunkerlar, estakadalar va shu kabilar).

Ikkinci guruhga shaxta (rudnik), kar’er maydonlarining bir qismidagi foydali qazilma zaxiralarni qazib olishga mo‘ljallangan kon lahmlari, shaxta maydonidagi yer osti suvlarini chiqarib tashlash qurilmalari, shtreklar va boshqalar kiradi. Bu asosiy fondlarning to‘la qiymati shaxta maydoning shu qismidagi zaxiralarni qazib olish davrida qazib chiqarilgan foydali qazilmalarning har bir tonnasiga asta-sekin o‘tkazib borish yuli bilan qayta tiklanadi.

Shunday qilib tonna stavkasi orqali hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalar asosiy fondlar har bir guruhi uchun alohida aniqlanadi. Bunda quyidagi ifodadan foydalaniladi.

$$Ats = \frac{asosiy\ fondlar\ qiymati}{shu\ fondlar\ yordamida\ qazib\ olinadigan\ zaxira}, \text{ som/tonna}$$

Bu yerda:

$A_{ts}$ - tonna stavkasida hisoblanadigan amortizatsiya ajratma miqdori, so‘m/tonna.

Korxona bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarning hajmini aniqlash uchun ularning amortizatsiya me’yorlari va tonna stavkasi orqali hisoblangan miqdorlari qo‘shiladi. Ko‘p yillik statistik ma’lumotlar asosida konchilik sanoati tarmoqlari uchun o‘rtacha umumiyl amortizatsiya me’yorlari (tonna stavkasi va amortizatsiya me’yori) belgilangan.

### 1-masala.

Karyerning og‘ir sharoitida 75 tonnalik yuk ko‘taruvchi avtosomasvallari ishlaydi. Ularning bazoviy amortizatsiya ajratmalari: to‘la tiklash uchun mashina 1000 km yurishiga uning qiymatidan 0,3% ni, kapital tiklashga 0,2% ni tashkil etadi. Mashinalarni og‘ir sharoitda ishlashini hisobga oluvchi koeffitsiyent 1,3 deb belgilangan. 75 tonnalik yuk ko‘taruvchi mashinalar uchun 1,15.

Yechimi..

Korrektirovka qilingan amortizatsiya me’yori 1000 km yo‘l yurish uchun quyidagini tashkil etadi.

Mashinani qayta tiklash uchun:

$$N_{a.t.t} = 0,3(1,3 + 1,15 - 1) = 0,435$$

$$N_{a.k.r} = 0,2(1,3 + 1,15 - 1) = 0,29$$

### 2-masala.

Burg‘ilash stanogining ulguji narxi 330 mln.so‘m, uni konga keltirish va montajga ketgan Xarajatlar 10,5 mln.so‘m, va 13,2 mln.so‘mni tashki etadi. Mashinani kapital ta’mirlash Xarajatlari 12,5 mln.so‘mni tashkil etadi.

Burg‘ilash stanogining qoldiq qiymatini aniqlang?

$$H = 330 \text{ mln.so‘m}$$

$$X_M = 10,5$$

$$\text{mln.so‘m } X_k = 13,2$$

$$\text{mln.so‘m}$$

$$X_T = 12,5 \text{ mln.so‘m}$$

$$P = 30,4 \text{ mln.so‘m}$$

$$Q = ?$$

$$Q = H + X_M + X_K + X_T - P = 366,2 - 30,4 = 335,8$$

Qoldiq qiymati 335,8 mln.so'm.

### **3-masala.**

Burg'ilash stanogining 15 yil mobaynida kapital ta'mirlash uchun ketgan haqiqiy Xarajatlari 270 mln.so'm. dastlabki qiymat 342 mln.so'm. kapital ta'mirlash uchun amortizatsiya ajratmalari 4,9% ni tashkil etadi. Stanokning amortizatsiya ajratmalari hisobiga kapital ta'mirlash uchun moliyaviy jihatdan ta'minlanishi darajasini foizlarda aniqlang.

Yechimi.

$$t = 15 \text{ yil}$$

$$P = 270 \text{ mln.so'm}$$

$$H = 342 \text{ mln.so'm}$$

$$\alpha = 4,9\%$$

1. Kapital ta'mirlash uchun amortizatsiya summasini aniqlaymiz:

$$\frac{342 * 4,9}{100} = 16,758 \text{ mln.so'm}$$

2. Bir yillik kapital ta'mirlash summasi:

$$\frac{16,758}{18} = 0,931 = 93,1\%$$

Stanokning amortizatsiya ajratmalari hisobiga kapital ta'mirlash uchun moliyaviy jihatdan ta'minlanishi 93,1% darajasini aniqlaymiz.

### **4-masala.**

Korxonaning asosiy materiallarga bo'lgan bir kunlik talabi 82 mln.so'm. Zaxira me'yori 26 kun. Korxonaning aylanma mablag'lariga bo'lgan talabi topilsin.

$$82000000 * 26 \text{ kunga} = 2132000000 \text{ so'm}$$

Korxonaning 26 kunlik aylanma mablag'i 2132 mln.so'm.

Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatini quyidagi formuladan aniqlaymiz:

$$F_o' \cdot y \cdot q = F_y \cdot b \cdot q + \sum \frac{F_{kr} \cdot t_{kr} \cdot i \cdot v}{12} - \sum \frac{F_{chiq} (12 - t_{chiq} \cdot i \cdot v)}{12},$$

bu yerda:

$F_{vb}$  – asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati.

$F_{kr}vaF_{chq}$  – rejalarshirilgan yilda ishlab chiqarishga kiritilgan va ishdan chiqarilgan fondlarning qiymati.

$t_{kr.i.v}vat_{chq.i.v}$  – ishlab chiqarishga kiritilgan va ishdan chiqarilgan asosiy fondlarning rejalarshirilgan yilda ishlov vaqtiga, oylarda.

### 5-masala.

Ekspeditsiyaning asosiy fondlari yil boshidagi qiymati 160 mln.so‘m. Reja bo‘yicha mart oyida 2,1 mln.so‘m, iyulda 1,3 mln.so‘m, noyabrda 5,6 mln so‘mlik asosiy fondlar ishlab chiqarishga kiritildi. Aprel oyida 1,2 mln so‘mlik va oktyabr oyida 1,8 mln so‘mlik asosiy fonlar ishdan chiqarildi.

Yechimi.:

$$F_{ort} = F_{yb} + \sum \frac{F_{ij}}{12} - \sum \frac{F_{ch}(12-t_{ch})}{12}$$

1. Asosiy fondlarning yillik o‘rtacha qiymatini aniqlaymiz:

$$F_{ort} = 160 = \frac{2,1 \cdot 9}{12} + \frac{1,3 \cdot 5}{12} + \frac{5,6 \cdot 1}{12} = \frac{1,2(12-4) + 1,8(12-10)}{12} = 161,49 \text{ mln.so‘m}$$

2. Asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymatini aniqlaymiz:

$$F_{yo} = 160 + 2,1 + 1,3 + 5,6 - 1,2 - 1,8 = 166 \text{ mln.so‘m}$$

3. Asosiy fondlarning yangilanish koeffitsiyenti quydagicha aniqlanadi: Umumiy yil davomida kiritilgan asosiy fondlar.

a)  $2,1+1,3+5,6=90 \text{ mln.so‘m}$

b)  $K_{va}=9/160 = 0,056$

4. Asosiy fondlarning ishdan chiqish koeffitsiyenti:

$$1,2+1,8=3,0 \text{ mln}$$

$$a) K_{ch} = 3/160=0,01$$

## 6-masala.

Kon maydoning chuqur gorizontlarida razvedka ishlarini olib borish uchun stvol kavlab o'tildi, uning birinchi gorizontini sarf Xarajatlari 26 mln.so'mni tashkil etdi va 4 mln tonna zaxiralari borligi aniqlandi, ikkinchi gorizontning o'ng qanotida 1,4 mln tonna zahira aniqlandi, sarf-xarajatlar 47 mln so'mni tashkil etdi. Chap qanotda 800 ming tonna zahiralar aniqlandi, sarf-xorajatlar 20 mln so'mni tashkil etdi.

Yechim:

1 tonna zaxirani aniqlash uchun razvedka ishlaridagi xarajatlarni aniqlaymiz.

$$26000/4000+47000/400000+20000000/800=6,5+33,6+25=65,1 \text{ so'm/t}$$

## 7-masala.

Karyerning ishlab chiqarish asosiy fondlarining yil boshidagi qiymati 374,3 mln so'm, yil davomida: may oyida 860 ming so'mlik, noyabr oyida 1200 ming so'mlik asosiy fondlar hisobidan chiqarildi. Iyul oyida 1560 ming so'mlik asosiy fondlar kiritildi. Aylanma fondlarning o'rtacha qiymati 23,5 mln so'm, yil davomida 275 ming tonna tovar rudasining har 1 tonnasi 6300 so'mdan sotildi. Rudaning tannarxi esa har tonnasiga 5600 so'mni tashkil etdi. Karyerning rentabellik darajasini aniqlang?

Yechimi:

1. Kar'erni asosiy fondlarini o'rtacha yillik qiymatini topamiz.

$$F_{or} = F_{yb} + \sum \frac{F_{tj}}{12} - \sum \frac{F_{ch}(12-t_{ch})}{12}$$

Bu yerda:

$F_{yb}$ - asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati;

$F_i, F_{ch}$  - rejallashtirilgan yilda ishga tushadigan va ishdan chiqadigan asosiy fondlar qiymati;

$t_j, t_{ch}$  - rejallashtirilgan yilda asosiy fondlar ishga tushashadigan va ishdan chiqadigan oylar.

$$F_{ort} = 374,3 + \sum \frac{1560 \cdot 5}{12} - \frac{860(12-5) + 1200(12-11)}{12} =$$

$$= 374,3 + (650 - 601,6) = 374,3 + 48,4 = 422,7 \text{ mln so'm}$$

2. Korxonaning ruda sotilishidan olgan foyda miqdorini topamiz.

$$P = (N - T)Q = (6300 - 5600) \cdot 275 = 192500000 \text{ so'm}$$

$$R_f = \frac{P}{F_{asosiy} + F_{ayylanma}} \cdot 100 = \frac{192500000}{422,7 + 23,5} \cdot 100 = \frac{192500000}{446,2} \cdot 100 = 43,16\%$$

3. Mahsulot rentabelligi quydagicha aniqlanadi;

$$R_M = \frac{P_{foyda}}{xarajatlar} \cdot 100 = \frac{192500000}{5600 \cdot 275000} \cdot 100 = \frac{192500000}{1540000000} \cdot 100 = 12,5\%$$

### Asosiy fondlarning yillik amortizatsya ajratmasining hisobi.

**1-jadval**

Nº	Mashina, mexanizm va uskunalar nomi	O'lcha mi	So ni	Bittasinin g balans narxi mln.so'm	Transport va montaj ishlari uchun sarflanadi gan Xarajatlar (15%), mln.so'm	Bittasing balans narxi mln.so'm	Ham masining umumiyyarxi mln.s o'm	Amortizatsiya me'y orlari, %	Yillik amortizasiya miqdori, mln.so'm
<b>Burg'ilash va portlatish jarayoni bo'yicha</b>									
1	Burg'ilash Stanogi	don a	8	80	9,6	89,6	716,8	20	143,36

2	Skvajinaga portlatish moddasini joylashtiruvchi mashinalar	don a	6	70	8,4	78,4	470,4	20	94,08
---	--	-------	---	----	-----	------	-------	----	-------

**Burg‘ilash va portlatish jarayoni bo‘yicha yillik amortizatsiya ajratmasi 237,44**

**Foydali qazilmani qazishga taylorlash va qazish bo‘yicha**

3	Buldozer	don a	8	75	9	84	672	20	134,40
4	Ekskavator	don a	8	270	32,4	302,4	2419,2	20	483,84

**Foydali qazilmani qazishga taylorlash va qazish bo‘yicha yillik amortizatsiya ajratmasi 618,24**

**Transport Xarajatlari bo‘yicha**

5	Avtosamos val	don a	16	110	13,2	123,2	1971,2	20	394,24
6	Elektrovoz	don a	0	180	21,6	201,6	0	20	0,00
7	Vagon	don a	0	120	14,4	134,4	0	20	0,00

**Transport Xarajatlari bo‘yicha yillik amortizatsiya ajratmasi 394,24**

<b>Ja’mi:</b>		<b>46</b>							<b>1249,24</b>
---------------	--	-----------	--	--	--	--	--	--	----------------

## 5- amaliy mashg‘ulot. Korxonaning aylanma mablag’lari(2 soat)

**Mashg‘ulot maqsadi:** Aylanma fondlar va aylanma mablag’lar: tarkibi va tuzilishi, aylanma mablag’lardan oqilona foydalanish, aylanma mablag’lardan foydalanish ko‘rsatkichlari, aylanma mablag’larni me’yorlashtirish. aylanishini tezlashtirish

Korxona aylanma mablag’laridan samarali foydalanish uch asosiy ko‘rsatkichni tavsiflaydi:

- 1) aylanish koeffitsiyenti;

- 2) aylanma mablag‘larning yuklanish koeffitsiyenti;
- 3) vositalarning bir marta aylanishi davomiyligi.

Aylanish koeffitsiyenti korxona aylanma mablag‘larining ma’lum bir vaqt (yil, chorak) davomida amalga oshiruvchi aylanishini tavsiflaydi yoki aylanma mablag‘larning Har 1 so‘miga tug‘ri keluvchi sotilgan mahsulotlarni ko‘rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$K_a = S_m : K_a ;$$

bu yerda:

**S<sub>m</sub>** - sotilgan mahsulot hajmi, pul o‘lchovida;

**K<sub>a</sub>** - aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldik hajmi, pul o‘lchovida (aylanma mablag‘lar me’yoriy).

Misol. Korxonaning bir yil mobaynida sotilgan mahsulotlari hajmi 800 mln.so‘mni tashkil qiladi. Bu holda aylanma mablag‘lar me’yori 200 mln. so‘mni tashkil qiladi. Demak,

$$K_a = 4,4 \text{ (880:200).}$$

Aylanma mablag‘larni yuklanish koeffitsiyenti aylanish koeffitsiyentiga teskari bo‘lgan qiymatdir. U sotilgan har 1 so‘m mahsulotga sarflangan aylanma mablag‘larni tavsiflaydi hamda quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$K_{yu} = K_a : S_m$$

Bir marta aylanish davomiyligi kunlarda o‘lchanadi hamda shu davrdagi kunlar sonini aylanish koeffitsiyentiga nisbati orqali quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$T = K : K_a$$

bu yerda:

**K** - shu davrdagi kunlar soni (360,90).

Aylanma mablag‘larning to‘liq aylanish muddati qanchalik kichik yoki bu aylanishlar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, aylanma mablag‘lar shunchalik kam talab qilinadi va aksincha, aylanma mablag‘lar qanchalik tez aylanishda bo‘lsa, shunchalik samarali ishlatiladi.

Aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashtirish samarasi, ulardan

foydalinishni yaxshilash tufayli kamroq iste'mol qilinishi yoki qisman ozod qilinishida aks etadi. Aylanma mablag'lar mutlaq yoki nisbiy ozod qilinishi mumkin.

Mutlaq ozod qilish korxonaning aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini kamaytirishni tavsiflaydi hamda mavjud resurslardan ratsional foydalinishga oid turli tashkiliy-texnik chora-tadbirlar hisobiga amalga oshiriladi.

**1-masala.** Korxona aylanma mablag'larining o'rtacha miqdori 2016 yilda 100mln. so'mni tashkil qilgan. 2017 yilda ishlab chiqarish hajmini o'zgartirmagan holda 900 mln. so'mni miqdorida ehtiyoj rejalashtirilmoqda. Bu holda asosiy vositalarning mutlaq ozod qilinishi 100 mln. so'mni tashkil qiladi.

Nisbiy ozod qilish aylanma mablag'lari hajmining o'zgarishi hamda sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishini aks ettiradi. Uni aniqlash uchun hisobot yilida aylanma mablag'larga ehtiyojni mahsulotni mazkur davr mobaynida sotish bo'yicha haqiqiy aylanish hamda o'tgan davrdagi aylanishni (kunlarda) inobatga olgan holda hisoblash zarur. Ular o'rtasidagi farq ozod qilingan vositalar miqdorini beradi.

**2-masala.** Korxonada 2016 yilda sotilgan mahsulot qiymati 3600 mln. so'mni. 2017 yilda esa 4000 mln. so'mni tashkil qilgan. Aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i 2016 yilda 100 mln. so'm, 2014 yilda esa 95 mln. so'mni tashkil qilgan. Aylanish muddati 2016 yilda 100 kun (100x360:360). 2017 yilda aylanma mablag'larga ehtiyoj 111mln. so'm (400x100:360). 2016 yilda aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i 95 mln. so'mni tashkil qilganini hisobga oladigan bo'lsak, vositalarning nisbiy ozod qilinishi 16 mln. so'mni (111-95) tashkil etadi.

**3-masala.** Konchilik korxonasini mahsulot realizatsiyasining yillik hajmi (ms) 11750 mln.so'm. Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati (Aq) 903 mln.so'm. Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsiyenti va aylanma mablag'larning o'rtacha bir marta aylanish davomiyligini aniqlang.

Yechimi..

Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsiyentini topamiz.

$$K_a = M_c / A_k = 11750000 / 903000 = 13 \text{ aylanadi}$$

Aylanma mablag‘larning o‘rtacha bir marta aylanish davomiyligini aniqlaymiz.

$$T = 360 / K_a = 360 / 13 = 27,7 \text{ kun}$$

**4-masala.** Hisobot yilida shaxtada narxi 98500 so‘mdan 123,0 ming tonna ko‘mir realizatsiya qilindi. Aylanma mablag‘larning o‘rtacha choraklik qoldig‘i : I chorakda - 8374,0 ming so‘m, II chorakda - 8582,0, III - chorakda 8945,0 , IV- chorakda esa - 9071 ming so‘mni tashkil etdi. Aylanma mablag‘lardan foydalanish ko‘rsatkichlarini aniqlang.

Yechimi..

Shaxtaning aylanma mablag‘larining o‘rtacha yillik qiymati quyidagicha:

$$A_{o‘r.g.} = \frac{8374000 + 8582000 + 89450000 + 9071000}{4} = 8743000 \text{ som.}$$

Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsiyentini topamiz:

$$K_a = 1230000 * 98,5 / 8743000 = 13,9 \text{ aylanadi}$$

Bitta aylanishning o‘rtacha davomiyligini aniqlaymiz.

$$T_{ayl} = 360 / 13,9 = 25,9 \text{ kun}$$

## 6-amaliy mashg’ulot. Korxonaning mehnat resurslari (2 soat)

**Mashg’ulot maqsadi:** Mehnat resurslarini tasniflash, mehnat resurslarining tarkibi va tuzilishi, mehnat unumдорligi, sanoat korxonalarida ish haqini tashkil qilish, ishlab chiqarish resurslarining o‘zaro ta’sir mexanizmi

Kadrlarning korxonada harakatlanishini tavsiflash uchun quyidagi ko‘r satkichlar hisoblanadi va tahlil qilinadi:

## Ishchilarни исхга қабул қилиш бо‘йича аylanish koeffitsiyenti (Kqq):

$$K_{qq} = \frac{ishga}{persona ln ing} \frac{qabul}{o'rtacha} \frac{qilingan}{ro'yxat} \frac{personal}{soni}$$

## Ishdan ketish bo‘yicha aylanish koeffitsiyenti ( $K_{i.k}$ )

$$K_{ik} = \frac{ishdan}{persona ln ing} \frac{bo'shagan}{o'rtacha} \frac{personal}{ro'yxat} \frac{soni}{soni}$$

## Kadrlar oqimi koeffitsiyenti ( $K_{k.o}$ )

$$K_{k.o} = \frac{o'z xohishiga ko'ra,}{mehnat} - \frac{int izo min i buzganlik}{o'rtacha} \frac{uchun ishdan bo'shagan}{ro'yxat} \frac{xodimlar soni}{soni}$$

## Korxona tarkibining doimiylik koeffitsiyenti ( $K_{p.d.t}$ )

$$K_{p.d.t} = \frac{butun yil}{persona ln ing} \frac{davomida}{o'rtacha} \frac{ishlagan}{ro'yxat} \frac{personal}{soni}$$

### Ishchilar soni va mehnat unumdarligini aniqlash bo'yicha

Ma'lumki, konchilik korxonalarida ish tartibi ikki xil bo'lishi mumkin - uzlukli va uzlusiz ish rejimlari.

Yillik uzlusiz ish tartibi, asosan, konlarni yer osti usulida qazib oluvchi kichik, konchilik korxonalarida qo'llaniladi. Bu rejimda korxona, uchastka va sexlar haftada 5 yoki 6 kun ishlaydi, 1 yoki 2 kun dam olish kuni bo'ladi.

Uzlusiz ish tartibi katta unumdarlikka ega bo'lgan shaxta va karyerlarda qo'llaniladi. Bu rejimda yilning 360 yoki 356 kuni ish kuni bo'lib, 5 kun yoki 9 ta bayram kunlari ta'mirlash ishlariga ajratiladi.

Korxonalarning bir yillik ish kunlari quyidagi ifodada aniqlanadi:

IK=365-DK-BK, kun.

DK - dam olish kunlari (6kun ish haftasida DK=52, ish rejimida DK=0).

BK - bayram kunlari (BK=9 kun).

Ishchilarning bir yildagi chiqish kunlari quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

KI=(365 - DK - BK - OK)\* 0,96, kun

OK - ishchilarning yillik ta'til kunlari 24,36 va 48 kun bo'lishi mumkin.

0,96 - ishchining kunlarni davlat vazifalarini hisobga olish koeffitsenti.

Ishchilarning ro‘yxat koeffitsiyenti quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$K_{ro'y} \frac{365 - n_{bay} - n_{dam}}{(365 - n_{bay} - n_{dam} - n_{tat}) 0,96}$$

Bunda:

$n_{bay}$ -yildagi bayram kunlari soni ;

$n_{dam}$ -yildagi dam olish kunlari soni ;

$n_{tat}$ -ishchining yil davomidagi ta’til kunlar soni.

Korxonalarda ishchilar tarkibi ikkiga ajraladi - ishga chiqish tarkibi va ro‘yxat tarkibi.

Ishga chiqish tarkibi - bu bir sutka davomida bevosita ish joylarida ishlaydigan ishchilar soni. Bular ishga chiqish tarkibidan ro‘yxat koeffitsiyenti miqdoricha kishi bo‘ladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{ro'y} = N_{i.ch.t} * K_{ro'y} kishi / sutka$$

$N_{icht}$  ishga chiqish tarkibidagi ishchilar soni, kishi/sutka

Konchilikka ishga chiqish usuli ikki tarkibda aniqlanadi:

1. Mehnat me’yori bo‘yicha hisoblash usuli.

2. Ishchilarni joy-joyigacha xizmat ko‘rsatish me’yori bo‘yicha taqsimlash usuli.

Birinchi usulda ishbay ish haqi oladigan ishchilar soni aniqlanadi:

$$N_{i.ch.t.} = \frac{Q_{sut}}{M_m \cdot K_{mb}}$$

$M_m$  - ishchilarga ma’lum mutaxassislik bo‘yicha bir smenada bajarilishi lozim bo‘lgan mehnat me’yori, tegishli birliklarda.(t/m);

$K_{mb}$  - mehnat me’yorini bajarish koeffitsiyenti.

Ish me’yorini bajarish koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{M.b} = \frac{P_{sm}}{M_T}$$

Bunda:

$P_{sm}$  - ishchining smenadagi mehnat me’yori.

Namunaviy misollar Yechimi. va yechish uchun masalalar

### **1-masala**

Kovjoyda ishlaydigan ishchining yil davomidagi ta'til kunlari soni 24 yoki 36 ish kun

Korxona hafta davomida besh va olti kun uzlukli hamda uzluksiz ish tartibi bo'yicha ishlaydigandagi ro'yxat tarkibi koeffitsentini aniqlang.

#### Yechimi.

Korxona uzlukli ish tartibida ishlagandagi ro'yxat koeffitsiyenti.

$$K_{ro,y} = 365 - 8 - 52 / (365 - 8 - 52 - 36) 0,96 = 1,18$$

$$K_{ro,y} = 365 - 8 - 52 / (365 - 8 - 104 - 36) 0,96 = 1,45$$

Korxona uzluksiz ish tartibida ishlagandagi ro'yxat koeffitsiyenti

$$K_{ro,y} = 365 - 8 - 52 / (365 - 8 - 52 - 36) 0,96 = 1,38$$

$$K_{ro,y} = 365 - 8 - 52 / (365 - 8 - 104 - 36) 0,96 = 1,7$$

### **2-masala.**

Shaxtada yiliga 120 ming t. ko'mir qazib chiqariladi. Ishchilarning o'rtacha yillik ro'yxat soni 1530 ta. Bir ishchi bir oyda o'rtacha 22 kun ishga chiqadi.

#### Topish kerak:

1. Ishchining smenalik va bir oylik mehnat unumdorligini.
  2. Ko'mir qazib chiqarishning mehnat talabliligini
  3. Yechimi.
- Ishchining oylik mehnat unumdorligi

$$M_{oy} = 120000 : 1530 = 78,4 t \text{ Ishchining smenalik mehnat unumdorligi}$$

$$M_{sm} = 120000 / 130 * 22 = 3,57 T \text{ yoki } 78,4 : 22 = 3,56 \text{ t. ko'mir qazib chiqarishning mehnat talabliliği}$$

$$M_{talab} = 1530 * 22 / 120000 * 1000 = 280,5 - 1000 \text{ tko'mir qazib}$$

chiqarishga kishi- smena

### **3-masala.**

Konchilik korxonasida yil davomida 7350 ming t ruda qazib chiqariladi va uni boyitib 4215 ming t. konsentrat olindi. Bir tonna konsentratning narxi 83 ming so'm. Kondagi ishchilarning shtat bo'yicha o'rtacha soni 1225 ta. Shundan 874 kishi ruda qazishda ishtirok etadi. Ishlovchilarning yil davomida o'rtacha 272 kun ishga chiqadilar. Aniqlash kerak.

- rudnik bo'yicha ishchilarning oylik va smenalik mehnat unumdorligining natural va qiymat ko'rsatkichlarini.
- ruda qazib chiqarishda ishlovchining smenalik va oylik mehnat unumdorligini-

#### Yechimi.

1. Rudnik bo'yicha bir ishlovchining smenadagi mehnat unumdorligi. Smena bo'yicha

$$K_{usm} = 4215000 / 12250272 = 12,65 \text{t}$$

Ishchining qiymat ko'rsatkichdagi ish unumdorligi

$$M_{u.sm.} = 12,65 \cdot 83000 = 1050000 \text{ so'm}$$

Bir oylik

$$M_{u.oy} = 4215000 / 1225 * 12 = 286,7 \text{t}$$

$$M_{u.oy} = 286,7 * 83000 = 16600 \text{ ming so'm}$$

2. Ruda qazib chiqarishdagi bir ishlovchining mehnat unumdorligi.

Smena bo'yicha

$$K_{u.sm.} = 7350000 / 874 * 272 = 30,9 \text{t}$$

Oylik bo'yicha

$$M_{u.ov} = 7350000 / 874 * 12 = 701,3 \text{t}$$

**4 -masala.** Konchilik korxonasida ko‘mir qazib chiqarish hajmi rejaga nisbatan 3,6% ga oshdi. Asosiy ishchilarning soni ham 3,6% ga, yordamchi ishchilarning soni 1,5% ga oshdi, qolgan boshqa xodimlarning soni o‘zgarmay qoldi. Reja bo‘yicha asosiy ishchilar soni 520, yordamchi ishchilar-270, qolgan xodimlar soni-150 ta

Korxona bo‘yicha bir ishlovchining mehnat unumdorligini aniqlang.

Yechimi.

Tejalgan ishlovchilar sonini topamiz.

$$T_t = 270(3,6-1,5)/100 + 150(3,6-0)/100 = 11_{kishi}$$

Bir ishlovchining mehnat unumdorligini o‘sishini aniqlaymiz.

$$\Delta R = (11 * 100 / 940 - 11) * 1,184\%$$

**7- amaliy mashg‘ulot . Korxonaning axborot resurslari (Asosiy manbalar) (2 soat)**

*Mashg‘ulot maqsadi:* Axborot tushunchasi va uning xususiyatlari, axborotni tasniflash, axborot manbalari, tadbirkorlik ma'lumotlarini himoya qilish

"Axborot" tushunchasi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, biron-bir voqea yoki hodisaning bayoni, izohi ma'nosini anglatadi. Hayotda axborotga moddiy dunyoning u yoki bu tomoni va unda sodir bo‘layotgan jarayonlar togrisidagi ma'lumotlar deb qaraladi.

Umuman axborot tushunchasi ma'lumotlar yigindisi bo‘lib, to‘plash, saqlash, qayta ishlash va etkazib berish obyekti sifatida xizmat qiladi. Xalq xo‘jaligi va uning tarmoqlarini boshqarishda katta hajmdagi turli axborotlarni, shu jumladan, iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy, texnik axborotni ishlashni taqozo etadi. Axborotlar boshqaruv negizi hisoblanadi va boshqaruv sifati ularning ishonchliligi va tezkorligiga bogliq.

Biznes bilan tanishishda quyidagi axborotlarga ega bo‘lish lozim.

- texnik axborot;
- moliyaviy axborot;
- marketing axboroti;

- huquqiy axborot;
- axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.

#### Texnik axborot

- Siz shug ‘ullanmoqchi bo‘lgan tovar yoki xizmatning tarkibi.
- Bu uchun zarur bo‘ladigan asboblar, asbob va jihozlar.
- Ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun zarur materiallar.
- Texnologiyani tanlash va h.k.
- Binolar, mahsulotlar, kanselyariya tovarlari, saytlar va h.k. dizayni.
- Joylashish joyi va binolarni tanlash bo‘yicha maslahatlar.
- Standartlashtirish byurosi.
- Ishlab chiqaruvchilar uyushmasi.
- Tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va tajriba-konstrukturlik byurolari.
- Sanoat doiralari.
- Internet.
- Do‘stlar va hamkasblar.

#### Marketing axboroti

- Iste'molchilar – ularning sotib olish qobiliyati.
- Boshqa biznesmenlar tomonidan raqobat bo‘lish ehtimoli.
- Mahsulotni tarqatish tarmoqlari.
- Tovar va xizmatlarga narx shakllanishi.
- Tovar va xizmatlarni bozorga o‘tkazish strategiyalari.
- Materiallar, tovarlar va xizmatlarni yetkazib beruvchilar.
- Bozor imkoniyatlari.
- Iste'molchilar.
- Ta'minotchilar.
- Biznes-jurnallar va kataloglar.
- Kutubxonalar.
- Ishbilarmon hamkorlik uyushmalari.
- Savdo ko‘rgazmalar.
- Internet

#### Moliyaviy axborot

- Zarur moliya mablaglari
- Korxonani moliyalashtirish manbalari.
- Sizning viloyatingiz, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi iqtisodiy sharoit va tendensiyalar.
- Menedjment va moliyaviy maslahat berish.
- Buxgalteriya hisobi tizimi.

- Dasturiy ta'minot to‘plamlari.
- Audit talablari.
- Soliqqa tortish.
- Biznesni sotib olish.
- Ishsizlik nafaqasi.
- Rieltorlik kompaniyalari.
- Kredit uyushmalari va shirkatlari.
- Aholining ijtimoiy muhtoj tabaqalari uchun ixtisoslashtirilgan muassasalar.
- Franchayzing kompaniyalari.
- Banklar va boshqa moliya muassasalari.
- Kredit uyushmalari.
- Sanoat doiralari.
- Oila a'zolari va do'stlar.
- Ta'minotchilar va boshqa korxonalar egalari.
- Grant va qarz beruvchilar.
- Tadbirkor ayollar uchun moliya muassasalari.

huquqiy axborot

- Biznesning huquqiy shakllari.
- Sizning korxonangiz shug‘ullanadigan faoliyat turini amalga oshirish uchun litsenziya qanday olinadi.
- Korxonani ro‘yxatdan o‘tkazish.
- Aniq korxonani eng yaxshi joylashtirish mumkin bo‘lgan hududlar va h.k.
- Intellektual multk.
- Kontraktlar va shartnomalar.
- Yuridik firmalar.
- Tegishli hukumat muassasalari.
- Axborot-resurs markazlari.
- Biznes-inkubatorlar.
- Internet.
- Mehnat qonunchiligi.
- Tadbirkorlar uyushmalari.
- Kasaba uyushmalari.

Axborot texnologiyalari va aloqa vositalari

- Kompyuter uskunasi, dasturiy ta'minot va tarmoq.

- Buxgalteriya hisobi va ishlab chiqarish uchun dasturiy ta'minot paketi.
- Zarur axborot bo'lgan Internet saifalari.
- Ish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bazasi.
- Internet.
- Ham mobil, ham o'rnatilgan telefonlar.
- Atrofdagi tadbirkorlar.
- Ixtisoslashgan matbuot.
- Ma'lumotnomalar.
- Internet

### **Axborot va yordamni qayerdan olish mumkin?**

1. Tarmoq ma'lumotlari sizning korxonangizni boshqa o'xshash korxonalar bilan solishtirish nuqtai nazaridan ancha foydalidir. Bu ma'lumotlar savdo uyushmalari va hukumat agentliklaridan olinishi mumkin va tovar zahiralarining aylanmasi, naqd pulga sotilganda o'rtacha chegirma, o'rtacha ustama foizi hamda o'rtacha oylik sotuvlar hajmi kabi ko'rsatkichlardan iborat.
2. Savdo uyushmalariga a'zo bo'lish siyosiy manfaatlarni oldinga surish, tadqiqotlar o'tkazish, ta'lim va o'quv dasturlarini tashkil etish, yangi texnologiyani tatbiq etish, a'zolar savollariga va ularni tashvishlantirayotgan narsalarga javob topish hamda gazetalar, jurnallar va maxsus hisobotlar orqali axborot tarqatish kabi xizmatlarni taqdim etilishini ta'minlashi mumkin.
3. Savdo gazetalari va jurnallariga obuna bo'lish ham ancha foydali. Tadbirkorlar ularning korxonalariga tegishli yangi tendensiyalar va rivojlanish yo'llarini tushunishda juda muhim bo'lgan ma'lumotlarni axborot vositalari orqali tanishish uchun vaqt ajratishlari lozim. Bir papka ochib, unga barcha taalluqli maqolalarni, kelgusida ularga murojaat qilish imkonini bo'lishi uchun, tikib boring.
4. Ta'lim dasturlari tadbirkorlarga ularning boshqaruv ko'nikmalari va qobiliyatlarini takomillashtirish borasida rasmiy rejalar ishlab chiqishga yordam beradi. Ko'pgina institutlar, agentliklar va uyushmalar tomonidan o'quv kurslari va katta yoshdagilar uchun ta'lim dasturlari allaqachon ishlab chiqilgan. Tadbirkorlar bunday shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari to'grisida bilishlari va ulardan to'liq foydalanishlari lozim.
5. Maslahatchilar (konsultantlar) bevosita va bilvosita yordam ko'rsatishlari mumkin. Biznes muammolarini yechishda maslahatchi (konsultant) tomonidan foydalanadigan yondashuv va uslublarga alohida e'tibor bering. Kelgusi muammolarni echish ustida ishlayotganda,

maslahatchi (konsultant) qanday ish tutgan bo‘lsa, siz ham shunday ish to‘tishingiz hamda o‘xhash usullardan foydalanishingiz mumkin.

6. Axborot-resurs markazlari (ARM) asosiy axborot manbai bo‘lishi lozim. Hukumat muassasalari foydasi tegishi mumkin bo‘lgan ko‘p sonli nashrlarni chop qiladi. Ayrim kollej va universitetlarning keng ommaga mo‘ljallangan adabiyotlar abonnement bo‘limlariga ega bo‘lgan namunali ARMLari bor. Tadqiqot institutlari va ayrim yirik korporatsiyalar ma'lum mavzular bo‘yicha tanlangan adabiyotlar to‘plami mavjud bo‘lgan ARMLarga ega. Savdo uyushmalari va kasaba uyushmasi tashkilotlari ham qaysidir aniq ehtiyojlarga tegishli materiallari bor bo‘lgan kutubxonalarga ega bo‘lishlari mumkin.

ARM – bu kichik biznesni amalga oshirishda juda foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan axborot xazinasidir. Kitoblar, davriy nashrlar, hisobotlar va gazetalar korxonani boshqarish bilan boqliq muammolarni hal etishda ham juda foydali bo‘ladigan axborotga ega bo‘lishi mumkin.

7. Internet kerakli axborotlarni qidirganda va tadqiqotlar o‘tkazganda foydasi tegishi mumkin. Axborot yetkazib beruvchilar bilan muloqotda elektron pochtadan foydalaniladi, bank operatsiyalarini rasmiylashtirish uchun elektron imzo joriy qilinmoqda.

8. Savdo-sanoat palatasi mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni shakllantirish maqsadida tashkil etilgan va biznes faoliyatining turli jabhalari bo‘yicha maslahatlar taqdim etadi, xorijiy hamkorlar bilan ish aloqalari va kontaktlarni kengaytirishga ko‘maklashadi, tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

Agar mulkdorlar zarur axborotga va qo‘llab-quvvatlashga ega bo‘lganlarida kichik korxonalar tanazzulining sababi bo‘lgan ko‘p muammolarni bartaraf qilish mumkin bo‘lar edi. Axborot izlashga layoqatsizlik yoki uni istamaslik yohud madad so‘rab murojaat qilmaslik tadbirkorning muammolarini murakkablashtiradi, undan shunday ham biznesni yuritishning barcha jabhalarida yetarlicha darajada malakali bo‘lish kutiladi. Kichik biznes egasining foyda olish uchun barcha mumkin bo‘lgan manbalarga murojaat qilishdan boshqa yo‘li yo‘q. Doimiy axborot kelib to‘rgandagina biznesni boshlash istagi va imkoniyati kafolatli muvaffaqiyat keltirishi mumkin. Tadbirkor qo‘sishma axborotsiz ham muvaffaqiyatga erishishi mumkinligi xato fikrdir. Ko‘p xollarda tadbirkorlar axborot va maslahat madadi borligidan xabarsiz bo‘ladilar. Uni faqat topishga va undan foydalanishga intilish kerak.

Axborot va g‘oyalar ko‘pgina turli xil manbalardan kelishi mumkin. Odamlar o‘zlarining mavqelari, tarbiyalari va tajribalariga qarab, muammolarni turlichayko‘rishadi. Muammolarni turli xil nuqtai nazarga ega bo‘lgan odamlar bilan muhokama qilish, sizning aniq muammongizni yechish yo‘llari to‘grisida sizga yangi goyalar beradi.

Turli xil manbalardan kelayotgan axborot va bilimlar sizning to‘gri qarorlar qabul qilish qobiliyatizingizni oshirishi lozim. qanchalik ko‘p axborot hajmiga ega bo‘lsangiz, shunchalik aqli qaror qabul qilish qobiliyatizingiz yuqoriroq bo‘ladi.

Agar turli aniq? manbalardagi axborot sizga qanday yordam berishi mumkinligini bilsangiz, kelajakda bu resurslardan ko‘proq hohish bilan foydalanasiz.

Agar siz boshqa odamlarning goya va takliflariga manfaatdor ekanligingizni namoyish etsangiz, ular sizga qo‘srimcha yordam va xizmat ko‘rsatish uchun o‘z ishlarini qo‘yib turishga ko‘proq shay bo‘lishadi.

Kichik korxona egalari doim axborot va maslahatlarga muhtojdirlar, ayni vaqtda ularning vaqt va pul imkoniyatlari cheklangandir.

Kichik korxona egalari o‘z korxonalaridan tashqarida turli xil manbalardan axborot va yordam izlashga muhtojdirlar.


Tadbirkorlar ularga berilayotgan maslahatlarni diqqat bilan eshitishlari lozim; ular bu maslahatlarga rioya etishlari shart emas, lekin ularni eshitib, o‘z ishlarida vujudga kelgan vaziyatni yaxshi anglashga erishadilar.

### Nazorat uchun savollar:

1. Axborot manbalari va ulardan qanday foydalaniladi?
2. Ommaviy axborot vositalariga nimalar kiradi?
3. Axborot turlari va ularni guruhlanishi deganda nimani tushunasiz?

## 8- amaliy mashg‘ulot. Ishlab chiqarish xarajatlari (2 soat)

**Mashg‘ulot maqsadi:** Ishlab chiqarish xarajatlarini tasniflash, korxonaishlab chiqarish xarajatlari turlari, yillik ishlab chiqarish Xarajatlari va mahsulot tannarxi, iqtisodiy elementlar va kalkulyatsiya bandlari bo‘yicha xarajatlar, uchastka, sex, ishlab chiqarish, zavod mahsulotining tannarxi, sanoat mahsulotlarining tannarxini pasaytirishning manbalari va omillari.



**8.1-rasm. Xarajatlarning turkumlanishi**

## 8.1.-jadval

### **Mahsulot tannarxining bevosita va bilvosita Xarajatlari tarkibi**

<b>Xarajat moddalari</b>	<b>Mahsulot tannarxiga olib borilishi jihatidan</b>	
	<b>Bevosita</b>	<b>bilvosita (ustama)</b>
Xomashyo va asosiy materiallar (qayta kirim qilingan chikitlardan tashqari)	+	
Sotib olingan butlovchi qismlar va yarim fabrikatlar	+	
Ishlab chiqarish Harakteridagi ish va xizmatlar		+
Texnologik maqsadlar uchun ishlatalgan yoqilg'i energiya	+	
Ishlab chiqarishga tegishli mehnatga xaq to'lash Xarajatlari	+	
Ishlab chiqarishga tegishli ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar	+	
Moddiy qiymatliklar kamomadi va Mahsulotlarning buzilishidan ko'rilgan zararlar	+	
Asosiy vositalar amortizatsiyasi		+
Ishlab chiqarishga oid boshqa Xarajatlari		+

Mahsulot tannarxi bir turdag'i mahsulotni bevosita va bilvosita ishlab chiqarish Xarajatlarini shu mahsulot miqdoriga bo'lish orqali topiladi:

$$MT = MX + IX + ST + A + BIX / M$$

Bu yerda:

MT – mahsulot tannarxi, so‘m;

MX - ishlab chiqarishning moddiy Xarajatlari, so‘m;

IX - ishlab chiqarish xususiyatidagi mehnatga haq to'lash Xarajatlari, so‘m;

ST - ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug'urta to‘lovlari, so‘m;

A - asosiy vositalar amortizatsiyasi, so‘m;

BIX - boshqa ishlab chiqarish Xarajatlari, so‘m;

M - mahsulot miqdori, sentner, dona, kg, tonna va hokazo

### **Iste'mol rayonlariga tayyor mahsulotni yetkazib berish Xarajatlari.**

a) tayyor mahsulotning umumiyligi og'irligi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$O_{r.nij} = N * qk * \beta_{ij}$$

buerda,  $O_{r.nij}$ —j-rayonda iste'mol qilinadigani-mahsulotning umumiyligi og'irligi, tonna;

$N$ -mashinasozlik kompleksi ishlab chiqaradigan mahsulotning yillik dasturi, dona;

$qk$ —bir komplekt texnologik jihozning o'rtacha og'irligi, tonna;

$\beta_{ij}$ —jarayondagi mahsulotni ishlab chiqarish hajmidan iste'mol qilish foizi.

b) Tayyor mahsulotni yetkazib berish Xarajatlari quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$S_{r.nij} = O_{r.nij} * '_{ij} * tj$$

bu yerda,  $S_{r.nij}$ —iste'mol jarayonlariga mahsulotni yetkazib berish xarajatlari, so'm;

$O_{r.nij}$  — j-rayonda istemol qilinadigan mahsulotning umumiyligi og'irligi, tonna;

$'_{ij}$  — ishlab chiqarish jarayoni bilan iste'mol qilish jarayoni orasidagi masofa, km;

$tj$ —tonna.km. yukni tashish uchun temir yo'l tarifi,sum.

v) iste'mol rayonlariga tayyor mahsulotni yetkazib berish xarajatlari quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$D = \sum_{i=1}^n S_{r.nij} = \sum_{i=1}^g O_{r.nij} * P_{ij} * tj$$

bu yerda,  $D$ —yukni yetkazib berishning umumiyligi Harjatlari, sum.

### **Namunaviy masalalar yechimi bilan**

#### **60-masala.**

Birlashma bo'yicha ko'mir qazib chiqarish hajmi 6,9 mln.t. Ulardan ochiq usulda 25,8 % qazib olingan. Ko'mir qazib olishning sarf-Xarajatlari 4-jadvalda keltirilgan.

Ochiq usulda qazib olishning sarf-Xarajatlari umumiyligi Xarajatlarining 12,5% ni tashkil qiladi. Quyidagilarni aniqlash kerak

- 1.1t ko'mir qazib olishning umumiyligi tannarxi  
 2.Ko'mir qazib olish tannarxini umumiyligi (strukturasini)  
 tarkibini  
 3.Ochiq va yer osti usullarida ko'mir qazib olishning  
 tannarxi

8.2 – jadval

Xarajatlar elementlari	Umumiyligi xarajatlar mln. so'm	1t ko'mir qazib olishni xarajatlari	Xarajatlar tarkibi, umumiyliga nisbatan, %
Materiallar	10600	1540	16,0
Yoqilg'i	660	100	1,0
Elektroenergiya	3310	480	5,0
Ish haqqi	29800	4320	45,0
Ish haqqiga ajratmalar	2720	390	4,1
Amortizatsiya	11260	1630	17,0
Boshqa pul xarajatlari	5960	860	9,0
Mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi	64310	9320	97,1
Ishlab chiqarishga taalluqli bo'lgan xarajatlar	1940	280	2,9
Mahsulotning to'la tannarxi	66250	9601	100

### Yechimi

Ochiq usulda qazib olingan ko'mirning ulushini topamiz.

$$6900000 * 25,8 / 100 = 1780200 \text{ t}$$

Ochiq usulda qazib olingan ko'mirning umumiyligi sarf -Xarajatlarini aniqlaymiz.

$$6625000000 * 12,5 / 100 = 8281250000 \text{ so'm}$$

Ochiq usulda qazib olingan 1tonna ko'mirning tannarxini topamiz.

$$8281250000 : 1780200 = 4651,8 \text{ so'm}$$

Ko'mirni yer osti usulida qazib olishning tannarxin itopamiz.

$$T = 6625000000 - 8281250000 / 6900000 - 1780200 = 11320 \text{ so'm},$$

## **1-masala:**

Shaxtaning yillik ko'mir qazib chiqarish hajmi 850 ming t. shundan 6,8ming t.si shaxtaning o'z ehtiyojlari uchun ishlataladi. Shaxta qo'shni korxonaga 345mln so'mlik xizmat ko'rsatdi. Shaxtaga ko'mir qazib chiqarish va uni sotish xarajatlari 8.3-jadvalda keltirilgan.

### **8.3-jadval**

Xarajatlar Elementlari	Umumiy xarajatlar, mln so 'm	1t ko'mir xarajatlari, so'm	Xarajatlar tarkibi jamiga nisbatan, %
Materiallar	4614	4855,3	41,8
Yoqilg'i	79	90	0,8
Elektroenergiya	444	520	4,5
Ish haqi	2465	2889,1	25
Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar	592	693,8	6,0
Amortizatsiya	1580	1851,8	16
Boshqa pul xarajatlari	591	700	6,0
Ishlab chiqarish xarajatlari	9574	11260	97,1
Ishlabchiqarishga taluq bo'lмаган xarajatlar	286	340	2,9
Tola tannarxi	9860	11600	100

Quyidagilarni aniqlash kerak:

1. Ko'mir qazib olish tannarxini.
2. Ko'mir qazib olishning to'liq tannarxi
3. 1tonna ko'mirning tannarxi
4. Ko'mirni sotish hajmini
5. Tovar mahsulotining tola tannarxi

#### **Yechimi.:**

Ishlab chiqarish tannarxi  $9860 - 286 = 9574$  mln so'm

Shaxtaning o'z ehtiyoji uchun ishlataladigan ko'mirning umumiy xarajatlari

$6800t * 11260 = 76568,01$  ming so'm

Sotiladigan ko'mirning tannarxi 9574000-76568=9497,4mln so'm  
 Tovar mahsulotining tola tannarxi 9497,4+286+345=10128,4 mln so'm

### **2-masala**

Razrezdag'i transformatorlarning belgilangan quvvati 2500 kva, yuqori kuchlanishli elektro dvigitellarning umumiyligini quvvati 2300kvt (*bunda cos f = 0,9 vak.pd = 0,9*) 1kva belgilangan quvvat uchun bir yillik to'lov 3100 so'm. Elektr-energiyaning 1kvt.c uchun to'lov 120 so'm. (schyotchik ko'rsatishi bo'yicha).

Razrezda ko'mir qazib chiqarish hajmi 4,7mln t.1t ko'mir qazib chiqarish bo'yicha elektroenergiya sarfi 4,5kvt.c Elektroenergiya sarfi elementi bo'yicha 1tko'mir qazib olish tannarxini aniqlang.

Yechimi.:

1. Yuqori voltli elektro dvigatellarning ulangan quvvati

$$W_d = 2300 / 0,9 * 0,9 = 2840 \text{ kva}$$

2. Tarmoqga ulangan transformatorlar va yuqori voltli elektrdvigitellarning umumiyligini quvvati

$$W_{umum} = 2500 + 2840 = 5340 \text{ kva}$$

3. Belgilangan quvvat uchun to'lov

$$T_b = 5340 * 360 = 19224,0 \text{ ming som}$$

4. Foydalilanigan elektr- energiya uchun to'lov

$$T_f = 4700000,0 * 4,5 * 320 = 2538 \text{ ming so'm}$$

5. Elektroenergiya bo'yicha yillik to'lov

$$19224,0 + 2538000 = 2552240 \text{ ming so'm}$$

6. 1t qazilmaning elektroenergiya elementi bo'yicha tannarxi

$$2552240 : 4700 = 5682,7 \text{ ming so'm}$$

### **3-masala**

Konchilik korxonasida yil davomida 720 ming t komir qazib chiqarilgan. Shundan 25% ochiq usulga to'g'ri keladi.

Ko'mir qazib chiqarishning umumiyligi sarf - Xarajatlari 50400 mln so'm bolib, ularning 38% ochiq usulda sarflangan. 1t ko'mirni ochiq usulda qazib olish tannarxini aniqlang.

1. Ochiq usulda ko'mir qazib chiqarish hajmini topamiz.  
 $720000 * 25 / 100 = 180000$ t
2. Sarf Xarajatlarni ochiq usulda qazib olishga to'g'ri keladigan qismini aniqlaymiz.

$$5040000000 * 38 / 100 = 191520 \text{mlrd som}$$

3. 1t ko'mirni qazib olish tannarxini aniqlaymiz.  
 $191520 : 180000 = 106400$  so'm

## Yechish uchun masalalar

### 1-masala

Yillik rejaning mehnat hajmi 480 000 meyori soatni tashkil qiladi. Meyorning ortig'i bilan bajarish koeffitsiyenti - 1,2 ga teng. Yillik foydali ish vaqtি fondi - 1878 soat. Ishchilar soni topilsin.

### 2-masala

Mexanika sexida 10 nafar texnik nazoratchi mo'tadil ish sharoitida

2- razryad bo'yicha ishlangan. Bitta nazoratchining yillik ish vaqtি fondi 270 kunini tashkil qilgan. Smena davomiyligi 7 soat. Jami nazoratchilarning yillik tarif ish haqi fondi topilsin.

### 3-masala

Sex ishchilarining yillik tarif ish haqi fondi 400 mln.so'm. Rejalashtirilgan o'rtacha yillik mukofot 10%. Smena davomiyligi 7 soat. Ishlab chiqarish jarayoni toxtovsiz tashkil qilingan. Sex ishchilarining soatli ish xaqi fondi

### 4-masala

Boyitish fabrikasi maydalash sexi ishchilarni kunlik ish xaqi fondi - 48078,8 so'm. Ish vaqtining yillik samarali fondi - 277 kun. Mehnat tatalining o'rtacha davomiyligi - 24 kun. Davlat va jamoat xizmati uchun to'lanadigan pul 2700 so'mni tashkil qiladi. Sex ishchilarining yiilik ish haqi fondini aniqlang.

## **5-masala**

Konchilik korxonalarida mahsulot chiqarish reja bo'yicha o'tgan yilga nisbatan 12 ga, ishlovchilar soni esa 1,8 % ga ortish kerak. Shu korxonaning rejada ko'rsatilgan mehnat unumdorligining o'sishi topislin.

## **6-masala**

Korxonada mahsulot chiqarish miqdori 10% ga, ishlovchilar soni 1,4% ga ortish kerak. Ishlab chiqarish hajmi ko'payish natijasida mehnat unumdorligining ortish me'yori topilsin.

## **9- amaliy mashg'ulot. Korxona mahsulotlariga (xizmatlarini, ishlarni) narxning shakllanishi (2 soat)**

**Mashg'ulot maqsadi:** Narxning iqtisodiy mohiyat va turlari ,korxonaning narx siyosati , narxning shakllanish strategiyasi va usullari , tarmoqda narxning shakllanishi, narxni aniqlash usullari

Quyidagi jadvalda tovar sifatiga bahoning bog'liqligi hisobga olingan baho o'rnatish strategiyalari aks ettirilgan.

### **1-jadval.**

**Tovar sifatiga bahoning bog'liqligi hisobga olingan baho o'rnatish strategiyalari.**

#### **BAHO**

	Yuqori	O'rta	Past
Yuqori	1. Mukofotli chegirmalar strategiyasi.	2.Bozorga chuqur kirib borish strategiyasi.	3.Yuqori qiymatli ahamiyatchilik stra-tegiyasi.
O'rta	4. Yuqori baholar strategiyasi	5.O'rta darajali strategiya.	6. O'ta sifatlilik strategiyasi.
Past	7.O'g'irlash strategiyasi.	8.«Usti yaltiroqlik» strategiyasi.	9. Past qiymatli ahamiyatlilik strategiyasi.

### **1-masala:**

Karyerda ruda qazib chiqarish tannarxi 1700 so'm; shu jumladan portlovchi materiallarga xarajatlar 200 so'm.

Reja bo'yicha portlovchi materiallar xarajatlari 6%ga pasayishi mo'ljallangan.

1. Ruda qazib olish xarajatlari rejaviy yilda pasayish darajasini toping.
2. Reja yilda 1t ruda qazib chiqarish tannarxini aniqlang.

Yechim:

1. Ruda tannarxidagi portlovchi materiallarning ulushi.

$$Y_j = (200/1700)/100$$

2. Ruda tannarxini pasayishi quyidagicha bo'ladi.

$$-\Delta T = 11,8 * 6 / 100 = 0,71\%$$

3. Reja yilida 1t ruda qazib olish tannarxini aniqlaymiz.

$$T_{rej} = 1700 - 1700 * 0,71 / 100 = 1688 \text{ so'm}$$

### **2-masala:**

1t ko'mir qazib chiqarishning amaldagi tannarxi 9600 so'm. Shu jumladan ochiq usulda qazib olish tannarxi 5200 so'm. Ko'mirning ochiq usulda qazib olishning ulushi 35%.

Ko'mirning ochiq usulda qazib olishni oshirish va rejaviy yilda uni hajmini 40% ga yetkazish mo'ljallangan.

Reja yilda 1t ko'mir qazib olish tannarxini va reja yilida 1t ko'mir tannarxini pasayishinianiqlang.

Yechim;

1. Yer osti usulida 1t ko'mir qazib olish tannarxi

$$T_{yerost.u} = 9600 * 100 - 35 / 65 = 12000 \text{ so'm}$$

2. 1t ko'mirni rejaviy tannarxi

$$T_{rej} = 5200 * 40 + 12000 / 100 = 9280 \text{ so'm}$$

3. Reja bo'yicha 1t ko'mir tannarxining pasayishi

$$\Delta T_{pas} = 9600 - 9280 / 9600 = 3,3\%$$

## **10- amaliy mashg‘ulot. Korxona faoliyatining moliyaviy natijalari (2 soat)**

**Mashg‘ulot maqsadi:** Korxona daromadlari, korxonaning foydasi, uni taqsimlash, optimal ishlab chiqarish hajmlarini aniqlash va daromadni maksimal darajasini aniqlash, korxona rentabelligi

Yalpi daromad - bu ko‘rsatkich korxona faoliyatininig pirovard natijasini ifodalaydi. U yalpi tushum (kirim) dan mahsulot ishlab chiqarish a sotishning barcha xarajatlarini (ish haqidan) tashqari chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

Foyda quyidagi ko‘rinishlar bo‘yicha farqlanadi:

Yalpi foyda - bu korxona daromadining bir qismi bo‘lib, undan barcha xarajatlarni chiqarib tashlagandan so‘ng korxona ixtiyorida qoladigan qismi.

Shuningdek mahsulot sotish, balans foyda va sof foyda ko‘rinishlari farqlanadi:

Mahsulot sotishdan olinadigan foyda korxona jamg‘armasining asosiy shaklidir.U quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$SF = V - T_1 = (B - T_2)$$

Bu yerda:

SF - mahsulot sotishdan olinadigan foyda;

V - mahsulot sotishdan keladigan tushum;

T<sub>1</sub> - sotiladigan umumiy mahsulotning to‘la tannarxi;

B - Bir birlik mahsulotni sotish bahosi;

T<sub>2</sub> - Bir birlik mahsulotning to‘la tannarxi;

Balans foyda BF - buxgalteriya balansida aks ettiriladigan korxonaning barcha turdagи ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatidan hosil bo‘ladigan foyda summasidan iborat bo‘ladi. U quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$BF = SF + F_{boshqa\ f} + F_{s.t.e} + Z$$

bu yerda:

SF<sub>boshqa f</sub> - boshqa ishlar va ulardan tashqari korxona, tashkilotlarga ko‘rsatiladigan xizmatlardan keladigan foyda;

F<sub>ste.</sub> - Korxonaning mahsulot sotish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan manbalardan keladigan foyda (korxonaning ortiqcha uskunalarini, moddiy resurslarini mahsulot sotishdan keladigan

tushum);

Z - uy-joy kommunal xo‘jaligi va madaniy-maishiy xo‘jaliklari faoliyatidan ko‘rildigani zarar.

Sof (hisobiy) foyda korxona ixtiyorida qoladigan balans foydaning bir qismi. **Sof=BF**

### **(Sf+QQS+Saksiz+Smol -mulk) - K**

Bu yerda: Sf - me’yor bo‘yicha balans foydadan olinadigan soliq; Saksiz - aksiz solig‘i;

Smol -mulk-mol-mulk solig‘i;

K - bank kreditlariga foizlarda to‘lanadigan mablag‘.

Korxona faoliyati foydadan tashqari rentabellik ko‘rsatkichi bilan baholanadi.

Amaliyotda ko‘proq rentabellikning quyidagi ko‘rinishlaridan foydalaniadi;

- ishlab chiqarish fondlarining qiymatiga nisbatan rentabellik;
- mahsulot tannarxiga nisbatan rentabellik.

Korxonalar ishlab chiqarish fondlarining umumiyligi rentabelligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$R = P_{\text{balans}} / (F_{\text{asosiy}} + F_{\text{aylanma}}) * 100\%$$

Bu yerda:  $P_{\text{balans}}$  - balans foyda;

$F_{\text{asosiy}}, F_{\text{aylanma}}$  - asosiy va aylanma fondlari o‘rtacha yillik qiymati. Korxona ishlab chiqargan alohida mahsulot turlari rentabelligi.

$$R_m = P_t / \text{Xarajatlar (tannarx)} * 100\%$$

Bu yerda:  $P_t$  - mahsulot turidan olinadigan foyda;

### **Namunaviy masalalar Yechimi. bilan va yechish uchun masalalr**

**1-masala.** O‘tgan yilda 720 000 ming t ko‘mir sotgan. Jami sotilgan ko‘mirning tannarxi 58 000 mln so‘m, 1 tonna ko‘mirni sotish 96 000 ming so‘m.

Aniqlash kerak:

1. Shaxtaning ko‘mir sotishdan olinadigan foydani
2. 1 tonna sotilgan ko‘mirdan olinadigan

foydani Yechimi.:

- Shaxtaning 720 000 ming tonna ko‘mirni sotishdan olgan

foyda.

$$96\ 000 * 720000 - 58000 \text{mln som} = 11120 \text{mln som}$$

- 1 tonna ko'mir sotishdan olinadigan foyda

$$p_{1t} = 58000 \text{mln som}: 720000 = 80555 \text{som}$$

**2-masala** Ikkita konchilik korxonalarining omborlarida rejalashtirilayotgan yil boshida 1,3 ming tonna mis rudasi qolgan. Undan 0,6 ming tonnasi iste'molchilarga jo'natilgan. Ularga haq to'lash muddati o'tgan yilda edi.

Reja bo'yicha 250 ming tonna tovar ruda qazib chiqarish mo'ljallangan. Me'yor bo'yicha rejalashtirilgan yil oxirida 2,4 ming tonna tayyor ruda zaxirasi bo'lishi kerak.

Sotishga rejalashtirilgan biroq, haqi to'lanmagan rudaning hajmi

85 ming tonna. Tovar mahsulotining o'rtacha tannarxi 6000 so'm, sotish narxi esa, 7900 so'm.

Aniqlash kerak:

1. Yil bo'yicha mahsulot sotish hajmini natural va qiymat ko'rsatkichlarini.

1. Jami va 1 tonna mahsulotni sotishdan olinadigan foyda miqdorini. Yechimi.:

Rejalashtirilayotgan yildagi sotiladigan tovar mahsulot hajmini natural va qiymat ko'rsatkichlarini topamiz.

Natural ko'rsatkichda

Q yil sotish hajmi =  $1300 + 600 + 250\ 000 - 2400 - 850 = 248650$  tonna

Qiymat ko'rsatkichda Q yil sotish =  $248650 \cdot 7960 = 1964,3$  mln so'm  
Tovar mahsulotini sotishdan olinadigan foyda:

- Yillik tovar hajmi bo'yicha ( $7900 - 6000$ )  $248650$  tonna =  $472\ 435\ 000$  so'm

- 1 tonna mis rudasidan olinadigan foyda

$$P_{1T} = 7900 - 6000 = 19000 \text{som}$$

### Firma faoliyatining tahlili

Byudjet tasdiqlanib ish chiqarish va marketing rejalarini ishlab chiqarilib firma hokimiyat tomonidan ro'yxatdan o'tgach endi o'z faoliyatini boshqarish mumkin. Har bir o'yin qatnashchisiga tegishli mansab taqsimlanadi. Kimdir prezident, kimdir vitse-prezident, kimdir funksional bo'lim rahbari bo'lsa boshqalar hodim bo'ladi.


O‘yin qatnashchilarining bir guruhi mahsulot ishlab chiqarsa, yana bir guruhi hisobot olib boradi. Firma faoliyatining samaradorligi har bir xodim, har bir bo‘lim, har bir menejer faoliyatiga bog’liq. Boshqaruv har haftada o‘z majlisini o‘tkazadi, unda vujudga kelgan muammolarni hal qilinadi, tegishli chora tadbirlar ishlab chiqiladi.

## **11- amaliy mashg‘ulot. Korxonaning investitsion faoliyati (2 soat)**

**Mashg‘ulot maqsadi:** Investitsiyalashning vazifasi va iqtisodiy mazmuni, korxona investitsiyalarining manbalari, investitsion loyihibalarining samaradorligini baholashning uslubiy asoslari, samaradorlikni aniqlovchi ko‘rsatkichlar, iqtisodiy samaradorlik, investitsiyalarning qoplanish muddati, xatarlar va ularning investitsion loyihadagi zarari

Moliyaviy investitsiyalar - mablag’larni moliyaviy aktivlarga kiritishdir. Moliyaviy investitsiyalar aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog’ozlar shaklida qatnashishi mumkin.

Misol uchun , Navoiy viloyat iqtisodiyotining asosini Navoiy tog’-metallurgiya kombinati, “Navoiyazot” OAJ, “Elektrokimyozavod” QK, “Qizilqumtsement” AJ, Navoiy IES kabi korxonalar tashkil etadi. Navoiy viloyati Toshkent shahri, Toshkent, Andijon, Qashqadaryo va Farg’ona viloyatlari bilan birqalikda respublikaning 6 ta yirik sanoat ishlab chiqaradigan hududi sirasiga kiradi.



## **1.1-rasm. Investitsiyalar tasniflanishi.**

Navoiy viloyatining sanoat korxonalari hozirgi kunda 50 dan ortiq turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarmoqda. Jumladan, ammiak selitrasи (yurtimizda ishlab chiqarilayotgan ammiakning 70 foizi), nitron to'qimalari (100 foizi), oltingugurt kislotasi (25,4 foizi), kimyoviy vositalar (4,1 foizi), ommon sulfati (1 foizi), sement (50 foizi), temir beton mahsulotlar (4,2 foizi), paxta tolasi (3,5 foizi), poyafzal mahsulotlari (1 foizi) va kiyim-kechak (0,5 foizi), zargarlik mahsulotlari (5 foizi), binolarni jihozlash materiallari (6 foizi), oziq-ovqat mahsulot turlaridan non-bulochka mahsulotlari (2,4 foizi), go'sht va go'sht mahsulotlari (2,5 foizi), konditerlik mahsulotlari (1,3 foizi), pivo (2,6 foizi) va boshqa mahsulotlar aynan shu viloyatda ishlab chiqarilmoqda.

### **Loyihani texnik-iqtisodiy asoslash.**

#### **I. Investitsiya hajmini aniqlash.**

- Bino-inshootlar, dastgohlarning ijara qiymati investitsiya hajmi
- Material ishlab chiqarish zaxirasi qiymati investitsiya hajmi
- Tez yemiriladigan va arzon buyumlarning ijara qiymati investitsiya hajmi
- Nazorat-o'lchov asboblarining ijara qiymati investitsiya hajmi
- Loyihani ishlab chiqarishga sarflangan investitsiya hajmi qiymati

#### **II. Yillik daromad, iqtisodiy samaradorlikni aniqlang.**

#### **III. Xarajatlarni qoplash muddatini aniqlang.**

##### **1. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslash.**

- Loyihaning maqsadi, vazifalari, ahamiyati, hozirgi talablarga javob bera olishi
- Loyihaning iqtisodiy samaradorligi, qo'llanish sferalari

##### **2. Investitsiya hajmini aniqlashish bo'yicha sarflanadigan xarajatlarni quyidagi jadvallarda keltiramiz.**

## **Material ishlab chiqarish zaxiralarini sotib olish investitsiya hajmi**

Nº	Materiallarnomi	Soni	Donasiningbaxosi	QQS (НДС)20%	Umumiyqiymati
1	Motor 3Kvt	1	200000	40000	240000
2	Kabel	4 m	20000	1600	9600
3	Ampermetor	1	5000	1000	6000
4	Voltmetor	1	5000	1000	6000
5	Boshqaruvpulti	1	100000	20000	120000
6	Toxagenerator	1	20000	4000	24000
7	Stend	1	20000	4000	24000
	Jami:	10	352000	71600	429600

## **Arzon baholi inventarlar o‘lchov nazorat asboblarini sotib olish investitsiya hajmi**

Nº	Materiallar nomi	Soni	Donasining baxosi	QQS(НДС) 20%	Umumi y qiy mati QQS bilan
1	Kusachka	1	4000	800	4800
2	Ombur	1	4000	800	4800
3	Otivertka	1	4000	800	4800
4	Testor	1	10000	2000	12000
5	Kalitlar To‘plami	1	20000	4000	24000
	Jami:	5	42000	8400	50400

**Amortizatsiya ajratmasi АФ 20% tashkil qiladi.**

$$A_{\text{отч}} = 20\% \times O\Phi / 12$$

$$A_{\text{отч}} = 0.2 \times 50400 / 12 A_{\text{отч}} = 840$$

**Joriy tamirlash va texnik hizmat uchun xarajatlar АФ qiyamatining 12%.**

$$P_t = 12\% \times O\Phi / 12$$

$$P_t = 0.12 \times 50400 / 12 P_t = 504$$

Nº	Bajarilgan ishlar nomi	Lavozimi	Kunl arson i	Bir kunlik ish haqi	Bajarilgan ishning qiymati
1	Loyiha mavzusini shakllantirish va uni tasdiqlash	CHC	1	13800	13800
2	ITA tanlash va tanishish	MHC	2	7200	14400
3	Tadqiqot obyektini tahlili	MHC	1	7200	7200
4	Informatsion ta'lim bilan tanishish	MHC	1	7200	7200
5	Ishning dolzarbligini asoslash	MHC	1	7200	7200
6	Loyihaning texnologik jarayonlarini o'rganish	MHC	1	7200	7200
7	Butlanuvchi elementlar bazasin itanlash	MHC	1	7200	7200
8	Materiallarvabutlovchiqismlar gabuyurtma	MHC	1	7200	7200
9	Materiallarvabutlovchiqismlar niolishvatekshirish	MHC CHC	1 1	7200 13800	7200 13800
10	Yig'ish usullarin iishlab chiqish	MHC	1	7200	7200
11	Tajriba o'tkazish	MHC	1	7200	7200
12	Tajriba natijalarini tahli lqilish	MHC CHC	2 1	7200 13800	14400 13800
13	Mustahkamligini hisoblash	MHC CHC	1 1	7200 13800	7200 13800
14	Samarani ko'rsatish	MHC CHC	1 1	7200 13800	7200 13800
15	BJD Mehnatnimuhofazaqilish	MHC CHC	1 1	7200 13800	7200 13800
16	Taqriz berish	CHC	1	7200 13800	7200 13800
17	Ishni shakillantirish va himoya	MHC	1	7200	7200
	Jami		24		219000

**Asosiy ish haqi – barchasi ishchilarining ish haqi va 40% miqdori va mukofot pulining yig'indisi sifatida aniqlanadi.**

$$3_{oc} = COT \times 0,4 + COT$$

$$3_{och} = 21900 * 1,43_{och} = 306600$$

**Qo'shimcha ish haqi – asosiy ish haqining 10% hisobida olinadi.**

$$3_d = K_d \times 3_{oc}$$

$$Z_{\Delta} = 0,1 \times 306600 Z_{\Delta} = 30660$$

Mehnatga haq to‘lash fondi asosiy va qo‘sishimcha ish haqlarining yig’indisi sifatida aniqlanadi.

$$\Phi OT = Z_{oc} + Z_{\Delta}$$

$$\Phi OT = 306600 + 30660 \Phi OT = 337260$$

Ijtimoiy ehtiyojlarga xarajatlar  $\Phi OT$ dan 27% miqdorida hisoblanadi.

$$O_{\phi cc} = 0,27 \times \Phi OT$$

$$O_{\phi cc} = 0,27 \times 337260 O_{\phi cc} = 84315$$

Transport xarajatlari asosiy ish haqidagi 20%

$$P_{tp} = 0,2 \times Z_{oc}$$

$$P_{tp} = 0,2 \times 306600 P_{tp} = 61320$$

Elektr energiyasiga bo‘lgan xarajatlar quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$W = N \times T \times S$$

N – o‘rnatalilgan quvvat, 3 kVt

T – ishlatilgan vaqt, 10 soat

S – 1 kVt/soat elektr energiyani narhi, 194,8

$$W = 3 \times 10 \times 194,8 W = 5844$$

Investitsiya hajmi quyidagi formuladan aniqlanadi

$$K = M \Pi Z + \Phi OT + A_{o\phi} + \sum P$$

$$\text{bunda} \quad \sum P = W + P_{tp} + O_{\phi cc} + P_t$$

$$\sum P = 5844 + 61320 + 84315 + 504 \sum P = 151983$$

$$K = 429600 + 337260 + 840 + 151983 \quad K = 919683$$

## O‘rganilgan ishning xarajat smetasi

Nº	Xarajarlarnomi	Qiymati
1	Bajarilgan ishning qiymati	1146659.48
2	Ishlab chiqarish xarajatlari	882045.75
3	Ishlab chiqarish tannarxi	848319.75
4	Davr xarajatlari	33726
5	Material xarajatlari	435444
6	Xom-ashyo	429600
7	Elektro energiya	58444
8	ФОТ	337260
9	Ijtimoiy sug’urta	84315
10	Amortizatsiya	840
11	Boshqa xarajatlar	21120.75
12	Asosiy ish haqi	306600

## Bajarilgan ishning iqdisodiy samaraorligini aniqlash

Nº	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	Qiymati	Izoh
1	Bajarilgan ishning qiymati	So‘m	1146659.48	Tablitsa
2	Ishlab chiqarish xarajatlari	So‘m	882045.75	Tablitsa
3	Investitsiya	So‘m	919683	Formula
4	Iqtisodiy samara	So‘m	264613.73	Formula
5	Qoplanish muddati	Oy	3.47	Formula
6	Rentabellik	%	28.7722	Formula

Iqtisodiy samarani quyidagi formuladan aniqlaymiz.

$$\Theta = (C1 - C2) \times Q$$

C1 va C2 – avvalgi va keyingi tannarx, **C1=C2×1,3**

Q – ishlab chiqarish hajmi

$$\Theta = (1146659.48 - 882045.75) * 1 \Theta = 264613,73$$

Rentabellikni aniqlaymiz

$$R = (\Theta \times 100\%) / K$$

$$R = (264613,73 \times 100\%) / 919683 \quad R = 28,7722$$

Qoplanish muddatini aniqlaymiz

$$T_{ok} = K / \Theta$$

$T_{ok}=919683/264613,73$   $T_{ok}=3,47$

Э – iqtisodiy samara

K –kapital

## 12- amaliy mashg’ulot. Korxonaning innovatsion faoliyati (2 soat)

**Mashg’ulot maqsadi:** Korxonalarda innovatsiya faoliyatiga innovatsiya, korxonada innovatsion faoliyatni tashkil qilish usullari, innovatsion loyiha yaratish va amalga oshirishning asosiy bosqichlari, innovatsion loyihalarni baholash.

**Innovatsiya** so‘zining ma’nosi ingliz tilidagi **INNOVATION** so‘zidan olingan bo‘lib yangilik va yangilik kiritish deganini bildiradi. Bu yangilik zamirida yangi tartibni, yangi odatni, yangi uslubni, kashfiyotni tushunish lozim. Yangilikni bozorga kiritish jarayonini tijoratlashish jarayoni deb atash lozim.

**Investitsiya** keng ma’noda yangi texnologiyalar, turli Mahsulotlar va xizmatlar, tashkiliy texnik va ijtimoiy iqtisodiy qarorlar shaklida ishlatalishi tushuniladi. Yangilikning tuzilishi, yaratilishi va tarqalishi jarayoni innovatsiyaning xayotiy tsikli deyiladi.

**Yangiliklar bozori (novatsiyalar).** Bozorning asosiy Mahsuloti bo‘lib, intellektual faoliyatning ilmiy va ilmiy texnik, natijaviy mahsuloti hisoblanadi. Unga avtorlik va shunga o‘xshash huquqlar (bu huquqlar xalqaro, respublika, korperativ va boshqa qonuniy, me'yoriy aktlar ta’sir doirasida bo‘ladi) taalluqlidir.

Innovatsiya nazariyasining rivojlanishiga asos solgan olim avstriyalik iqtisodchi Y.A.SHumpeter hisoblanadi. Mutaxassislar fikriga ko‘ra aynan ushbu olim birinchi bor innovatsiya tushunchasini ilmiy asoslab bergen. Y.A.SHumpeter ilgari surgan g‘oyaga ko‘ra, joriy etilgan har qanday yangi texnik qaror, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi bozorlarning tarkib topishi, xomashyolar manbai innovatsiya hisoblanadi.

Y.A.SHumpeter birinchilardan bo‘lib, iqtisodiy fanga ishlab chiqarish omillari sifatida “yangi kombinatsiya” tushunchasini kiritdi va uning tavsifnomasini berdi. Unga quyidagilar kiradi:

- istemolchilarga ma’lum bo‘lmagan moddiy nehmatni yaratish yoki yangi u yoki bu nehmatni ishlab Chiqish;

- tegishli tarmoqga yangi hali ma'lum bo'lmagan ishlab chiqarish usulini joriy etish (uning asosini ilmiy yangi kashfiyat usulidan foydalanib yaratilgan tovar tashkil etadi);
- bozorning avval mavjudligi va mavjud emasligidan qattiy nazar tegishli tarmoqda mutlaqo yangi sotish bozorini o'zlashtirish;
- yangi xomashyo yoki yarim fabrikat manbalarini topish (ushbu manba oldin ma'lum bo'lishi yoki uni yaratish imkonni bo'lishidan qattiy nazar);
- boshqa korxonalarning monopol holatiga qarshi kurashish uchun korxonani tarkibiy qayta tuzish.

Korxonalarning innovatsion yo'nalishlari quyidagilar bo'lishi lozim:

- innovatsion jarayonlarni boshqarishning yangi usullari va yondoshuvlari asosida innovatsiyani joriy etish mexanizmlarini takomillashtirib borish;
- iqtisodiyotning muhim tarmoqlari va korxonalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga qaratilgan loyihamar uchun katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilish va yangi mahsulotlarni yaratish;
- innovatsiya davrining barcha bosqichlari bo'yicha ishlab chiqarish – tadbirkorlik faoliyatini jadallashtirish;
- korxonalarning barcha ishlab chiqarish tadbirkorlik faoliyati yo'nalishlarida axborot texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanish.


**Innovation** so'zi inglizcha bo'lib, yangilikning kiritilishi degan ma'noni anglatadi. Iqtisodiy adabiyotlarda I.A.SHumpeter tomonidan berilgan konsepsiyasiga asoslanadi:

- innovatsiya – uning tadbirkorlik faoliyatida ilk bor qo'llanilish;
- diffuziya – innovatsiyaning keng tarqalishi.

### Xalqaro amaliyotda innovatsiya:

- birinchidan ilmiy-texnik natijasi;
- ikkinchidan yangi usullar, tashkil iy-boshqaruv shakllari, texnologiya, texnikani yaratish va uni joriy etish;

uchinchidan, ilmiy-tadqiqot va konstrukturlik ishlarini tashkil etish tushuniladi.



## **12.1-rasm. Innovatsiya faoliyati sohalari**

**Texnik-texnologik innovatsiya** – iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash uchun xizmat qiladi:

- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish (ishlab chiqarish Xarajatlarini kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish hisobiga);
- tijorat nuqtai nazaridan anhanaviy texnologiya asosida olish mumkin bo‘lmagan yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish imkoniyati tufayli;
- tijorat nuqtai nazaridan istiqbolda ana’naviy texnologiyalar asosida o‘zlashtirish imkonи bo‘lmagan uglevodorod zahiralarini aniqlash imkoniyatining mavjudligi.

Innovatsiya uchta asosiy fuksiyani bajaradi: qayta ishlab chiqarish, investitsiya, rag‘batlantirish.

Bu uch komponent innovatsiya faoliyatining asosini tashkil etadi.

**Innovatsiya** deganda keng ma’noda yangiliklarning rentabellik (foydalilik) darajasini oshirish uchun yangi texnologiyani qo‘llash, yangi mahsulot ishlab Chiqish yoki xizmat ko‘rsatish, tashkiliy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy qarorlarni ishlab Chiqish, tijorat, boshqarish va boshqa sohalarda qo‘llanishini tushunamiz.

**Korxonaning innovatsiya salohiyati** – moliyaviy, kadrlar, axborotlar, moddiy-texnik resurslar, tegishli xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalar majmuini tashkil etadi.

Oxirgi yillarda barcha sohalarda, shu jumladan innovatsion sohasiga bo‘lgan e’tibor kundan-kunga o‘sib bormoqda. Bu esa tasodif emas

albatta. G'arb tadbirkorlik faoliyati tajribasi innovatsion faoliyatning rivojlanishida kichik korxonalarining abzalliklari va roli katta ekanligini tasdiqlaydi. Xorijiy ekspertlarning kuzatuv natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, AQSh va G'arbiy Yevropa XX asrning 58 ta yetakchi ixtiolaridan 46 tasi alohida shaxslar va kichik firmalarga tegishli bo'lgan. AQShning "Miliy ilmiy fond"i ma'lumotiga asosan ishlovchilar soni 500 tagacha bo'lgan firmalarda ilmiy-tadqiqot faoliyatida sarflangan 1 AQSh dollari yirik korporatsiyalarga (ishchilar soni 10000 tadan ziyod) nisbatan 24 marta ko'proq yangiliklar bergen.

### **13- amaliy mashg'ulot. Korxona faoliyatini boshqarish asoslari.**

***Mashg'ulot maqsadi:*** Korxona boshqaruvining mohiyati va prinsiplari, boshqaruvning axborot ta minoti, boshqaruv qarorlar, ularning usullari va ularni qabul qilish jarayoni.

#### **Tahlil uchun vaziyatlar**

##### **1-Holat**

Majlisda ishchilardan biri rahbarning uni qanday qabul qilishi haqida ochiq norozilik bildiradi.<<Kabinetga kirasan, -dedi u, - salom o'rniga bosh silkitish, o'tirishni ham har doim taklif qilmaydi, insoniylik qani ?>>...

Bir odam so'zga chiqqan kishini qo'lladi, boshqasi esa: <<rahbar har doim o'z fikrini bildirib, unga kelgan har bir xodimga yordam ko'rsatadi, bu esa eng asosiysi>>- dedi.

Ularning qaysi biri haq ?

- Birinchi odam haq. Rahbar har doim o'z qo'li ostidagi kishilar kuzatuvida bo'ladi. Bu uni o'z harakatlarini qattiq nazorat qilishga majbur etadi, ayniqsa, har qanday ishlab chiqarish holatida bo'lmasin insonlarga hurmatda bo'lishni talab etadi.
- Ikkinci odam haq hissiyotlar esa ikkinchi o'rinda turadi. Ikkala ishchi hamadolatli mulohaza yuritishdi, etika, ahloq, rahbarning ichki madaniyati- bu ko'p narsani belgilaydi, lekin ishda shunday vaqtlar bo'ladiki, rahbar uchun salomlashishga ham qo'li tegmaydi, bundan tashqari rahbar va bo'ysinuvchi orasidagi o'zaro shaxsiy munosabatlar ham katta ahamiyatga ega. Bu yerda rahbar haq.

##### **2-holat**

Berilgan tavsiyga asoslanib, mijoz turini aniqlash, << M >> konning bosh iqtisodchisi.U juda bosiq, vazmin, sustkash ayol. Kim bilandir gaplashganda tez-tez ko'zini chetga olib qochadi.

Hech qachon o‘ziga etibor qaratishga harakat qilmaydi. Chunki bu uni uyaltiradi, yani ishchilar bilanzo‘rg’ atanishadi.

Tinchlik va yolg’izlikni xush ko‘radi.

Boshqalar nima bilan shug’ulanayotganinichetdankuzatishni yaxshi ko‘radi, lekin o‘zi ularning ishiga qo‘shilmaydi. Juda ishchan. Yaxshi kishilar bilan dilkash muomalada.

### **3-holat**

Tavsiflar asosida odamning mijozini aniqlang. <<B>> qobiliyatli muhandis-iqtisodchi. Ko‘pchilik uni juda qiziqqon va besaramjon deb hisoblaydi. <<B>> o‘ziga qaratilgan har qanday tanqidga chiday bilmaydi, o‘zini tutaolmaydi vatajovvuzkordek qaraydi.

O‘zining kamchiligini ko‘rsatishga jazm qilgan kishi bilan xohlagan paytda urishib ketishi mumkin. Bunday xulqni <<B>> hardoim unga qarshi zarba berolmaydigan kishiga qo‘llanishi kuzatilgan. Shu bilan birvaqtda u bilan tortisha oladigan va uni o‘z o‘rniga qo‘ya oladiganlar shuningdek u nimadan bo‘lsa ham tobe bo‘lganlar va uning shaxsiy xotirjamligi bilan bog’liq bo‘lganlar <<B>> bosiq, g’amxo‘r, vazmin, munosabat bildiradi. Shu bilan birga <<B>> juda ishchan, yangi ishga tez ko‘nikuvchan, kam charchaydi va mashhurlik axtaradi.

- |              |               |
|--------------|---------------|
| 1. Flegmatik | 3 Sangvinik   |
| 2. Xolerik   | 4. Melanxolik |

### **4-holat**

Bo‘lim boshlig’i ish vaqtida koridorda ketayotgan edi. Bir burchakda yosh ishchilar chekib turib baland ovozda gaplashar edilar. Bolim boshlig’i 10 minutdan keyin qaytayotib xuddi shu holatni ko‘rdi. Uning o‘rnida siz o‘zigizni qanday tutgan bo‘lar edingiz ?

1 Ularning oldiga kelib, nima uchun ish vaqtida uzoq vaqt gaplashib turganliklarini so‘rab, ish o‘rinlariga tarqalishlarini iltimos qilar edim.

2 Ma’muriy chora ko‘rilishi kerak: Mehnat intizomini buzganligi uchun buyruq shaklida hayfsan e’lon qillardim.

3 Yoshlar tashkiloti kotibini chaqirib, ulardan chora ko‘rishini, mehnat intizomini buzganligi uchun buyruq shaklida hayfsan elon qilishini so‘rardim.

4 Biron xulosaga kelmasdan, xodimlar nima haqida gaplashayotgani to‘g’risida o‘ylab ko‘rib, yaqinroq borib, sekin muloqotga kirishardim. Balki ishlab chiqarishning munozaraga

sabab bo‘lgan masalasini hal qila olmayotgan bo‘lish mumkin.

### **5-holat**

Iqtisodchi yarim kechgacha ishladi: zudlik bilan tahlil kerak edi. Iqtisodchi ertalab bo‘lim boshlig’i tomonidan o‘tkazilayotgan majlisga kech keldi. Bo‘lim boshig’ining jahli chiqib uning shaxsiga yomon gap aytdi. Bu iqtisodchining o‘rnida siz o‘zingizni qanday tutar edingiz ?

1 Munosabatimizni yomonlashishiga olib keladigan javob berardim.

2 Uning aybi asossiz ekanligini tinch yo‘l bilan tushuntirishga harakat qilardim.

3 Uning gapiga e’tibor bermayman, keyinchalik o‘zi tushunadi.

### **6-holat**

Yosh ishchi mehnat va ishlab chiqarish intizomini bir necha bor buzmoqda. Usta u bilan suhbatlar o‘tkazdi. Jarima solishga ham to‘g’ri keldi. Yosh ishchi ishlaydigan brigadada 12 kishi bor, ulardan biri uning do‘sti, har doim uni qo‘llaydi.

Kishi jamoa ishlari bilan uncha qiziqmaydi, ishdan so‘ng uyga ketishga shoshiladi. 5 kishi jamoatchilik topshiriqlarini bajarishadi, birigadir kasaba uyushmasi qo‘mitasi azosi. Yosh ishchi bilan yana<<favqulotda holat>> yuz berdi. Uning axloqini baholashda siz usta o‘rnida nima qilar edingiz ?

1 Brigada jamoasi yig’ilishida yosh hodimning harakatini muhokamaga qo‘yar edim.

2 Jamoa qatnashuvisz o‘zim qaror qabul qilar edim.

3 Yosh ishchining harakati muhokamasiga faqat birigada faollarini taklif qilar edim.

4 Boshqa javob yo‘q.

5 Korxonalarda menejerlar faoliyatini tashkil etish, menejerlarni shaxsiy va ishbilarmonlik sifatini baholash usullari.

### **7-holat**

Boshqaruv xodimlari qanday asosiy toifalarga bo‘linadi ?

1.2- Kategoriyaga: rahbarlar va muhandis- texnik xodimlar .

2.3- Kategoriyaga: rahbarlar, mutaxassislar, xizmat ko‘rsatuvchi- yordamchi-texnik va xizmatchi kasb egalari.

3.4- Kategoriyaga: yuqori darajadagi rahbar (boshliq o‘rinbosari) o‘rtal darajadagi rahbar (bo‘lim boshlig’i, bo‘lim va byuro boshliqlari.

### **8-holat**

Kasaba uyushmasini yetakchisini tanlash kerak. 3 ta nomzod bor. Quyida ularning Harakteristikalari keltirilgan. Kimni tanlardingiz ?

1. Birinchisi muloyim boshqalarni o‘z ketidan ergashtira oladigan, o‘z fikrida tura oladigan.
2. Insonlar bilan quruq munosabatda bo‘ladigan tabiatli mijozga ega ikkinchi nomzod, vazifalarni bajarishda tezroq ammo masalani aniq belgilab, uning bajarilishini tashkil eta oladi.
3. Uchinchi nomzod - jamoatchilik fikriga, tayanadigan o‘z ketidan ergashtira oladigan, ko‘ngilsizliklardan uzoq yuruvchi, ayniqsa ish jarayonida odamlarning o‘zaro munosabatlari bilan bog’liq hollarda.

### **9-holat**

Ishlab chiqarishga kelgan yosh mutaxasislarga rahbarlarni (ustozlarni) tayinlovchi (belgilovchi ) tamoyillari ustida o‘ylab ko‘ring. Sizning fikringizcha quyidagi berilgan uchta javobni qaysi biri haqiqatda haq, odilona (to‘g’ri) ?

1. Ma’muriy ishlab chiqarishga kelgan har bir yosh mutaxassisga zarur bo‘lgan maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan va yoshlar tarbiyasi bilan shug’ullanishni istagan eng yaxshi ishlab chiqaruvchilardan rahbarlar biriktirib qo‘yishi shart.

2. Ilg’or (yetakchi) ishlab chiqaruvchilardan yoshlar tarbiyasi bilan shug’ullanishni istaydiganlarni aniqlash (ko‘rsatish) zarur va ularga maxsus tayyorgarlikdan o‘tish uchun imkoniyatlar yaratib berish zarur Ayniqsa yosh ishchilarga biriktirilishi to‘g’risidagi masalani esa rahbarlarning o‘zlari hal etishlari lozim.

3. Ishga kirayotgan yosh ishchini ishlab chiqarishda rahbarning harakati bilan tanishtirish, unga yoshlar bilan ishslashning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g’risida to‘liq axborot berish zarur. Bundan so‘ng yosh mutaxassisga o‘zi rahbarni tanlashni taklif qilish kerak.

### **10-holat**

Rahbar mehnatiga bir qator xususiyatlari xosdir. Ulardan

asosiysi shundan iboratki, rahbar o‘zi uchun mehnat qilmaydi, uning faoliyati u rahbarlik qiladigan ishchilar jamoasi mavjudligi bilan ma’noga egadir.

Bu boshqaruv muhitida band bo‘lgan rahbar va mutaxassislardan ishchanlik qobiliyatini muntazam o‘sishini berilgan ishga javobgarlikni , mehnatni to‘g’ri tashkil qilishni va undan samarali foydalanishni talab etadi.

Zamonaviy rahbar o‘zida omilkorlikni (chuqur bilimga asoslangan) ishbilarmonlikni, tashabbuslilik intizomlilikni va ishga ijodiy yondashuvni uzviy ravishda uyg‘unlashtirishi shart.

Rahbar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan xususiyatlar to‘grisidagi savol tamomila yechilmagan bahslashuvlarga olib kelyapti, zero, boshqaruvchining ishi o‘ziga xos xususiyatlarni talab qiladi. Bu sifatlarni o‘lchash, ularning tarkibini aniqlash va boshqaruvning turli daraja va obyektlarining o‘zaro bog’lanishiga tegishlidir.

## **11-Holat.**


Boshqaruvning ma’zmuni jarayon sifatida o‘zining faoliyati turlarini ifodalaydigan vazifalarida ochiladi. Ular yordamida boshqaruv subyekti boshqariluv obyektiga ta’sir qiladi .

Tashkiliy texnik rejada ishlab chiqarishni boshqarish belgilariga ko‘ra quyidagi vazifalariga bo‘linishi mumkin: boshqaruv jarayoning mazmuni, ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyati turlariga aloqadorlik (mansublik ). Sanab o‘tilgan belgilar bo‘yicha hamma yirik vazifalar bir necha qismlarga bo‘linishi mumkin. Bunda birgina korxona ichidagi boshqaruv mehnatining bo‘linishi ko‘p miqdorli omillariga ta’sir qiladi; Shu jumladan keng ko‘lamlilik va boshqalar. Buning asosida boshqaruv mehnatining vazifa egaligida bo‘linishi yuzaga keladi. Shunday ekan, mehnatning vazifaga bo‘linishi so‘zлari keng manoda o‘z ichiga ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyati muhuti bo‘yicha boshqaruv jarayonining alohida boshqaruv ishi va operatsiyalar turlariga bo‘linishini oladi.

Boshqaruv bo‘yicha shunday mehnat bo‘linmasini ta’minlash muhumki, unda hamma vazifalari o‘zaro aloqadorlikda va muvofiqlashgan holda bajarilishi kerak. Bu esa alohida boshqaruv vazifalarining turli boshqaruvchi tizimlarning maqsadga muovfiq qo‘silib ketishini va bir- biriga biriktirilishini ta’minlashda yordam beradi . Bu o‘z navbatida , boshqaruv apparatida ishlaydiganlarning huquq va burchlarini aniqroq belgilab beradi ,

boshqaruv tizimini mukammallashtiradi.

**Qarorni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoniga ta'sir etuvchi elementlar.**



#### **14- amaliy mashg'ulot. Sanoatning maqsadli yo'nalishlari**

**Mashg'ulot maqsadi:** Tarmoqni rivojlantirish konsepsiysi, soha rivojlanishining asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2019 y. PQ-4124-son "Kon-metallurgiya tarmog'i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida"gi qarori buyicha, Respublikada tog'-kon va qayta ishlash korxonalari quvvatlarini oshirish maqsadida mineral-xom ashyo bazasidan foydalanish va qayta ishlash samaradorligini oshirish, investitsiyalarni faol jalb etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Kon-metallurgiya tarmogining yirik korxonalari - "Navoiy kon-metallurgiya kombinasi" DK (keyingi o'rinnarda - "Navoiy KMK" DK), "Olmaliq kon-metallurgiya kombinasi" AJ (keyingi o'rinnarda - "Olmaliq KMK" AJ) va "O'zbekiston metallurgiya kombinasi" AJda strategik turdag'i mahsulotlar, jumladan oltin, kumush, mis, rux va po'lat prokati kabi mahsulotlar, shuningdek 20 dan ortiq turdag'i boshqa sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

So'nggi ikki yil davomida kon-metallurgiya tarmog'ining yirik korxonalarini jadal rivojlantirish, modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan uzoh muddatli

dasturlar qabul qilindi. 2026-yilgacha "Navoiy KMK" DKda mahsulot ishlab chiqarish hajmini 30 foizga, "Olmaliq KMK" AJga 2,9 mldr. AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etish va 2023-yilgacha mis ishlab chiqarish hajmini 28 foizga, rux ishlab chiqarish hajmini 75 foizga oshirish ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, kon-metallurgiya tarmoqining yirik korxonalaridagi mavjud boshqaruv tuzilmasi, foydali qazilmalar zaxiralarining hisobini yuritish va baholash uslublari, moliyaviy hisobotlarning eskirgan shakllari ishlab chiqarishning o'sishiga va investitsiyaviy jozibadorlikning oshishiga to'sqinlik qilmoqda.

Kon-metallurgiya tarmoqining yirik korxonalari raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish maqsadida investitsiyalarni jalb yetishga qo'shimcha sharoitlar yaratish, shuningdek 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

1. Belgilansinki, kon-metallurgiya tarmogining yirik korxonalari:

a) 2019-yil yakunidan boshlab:

moliyaviy hisobotlarni majburiy tartibda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida tuzadi va xalqaro auditorlik kompaniyalarini jalb etgan holda mustaqil tashqi auditni o'tkazadi;

aktivlarni sotish rentabelligi, aktiv va majburiyatlarning aylanishi, shuningdek xalqaro fond birjalari va moliya institutlari talablariga asosan belgilanadigan boshqa ko'rsatkichlar darajasi bo'yicha minimal talablarni amaliyotga joriy qiladi;

b) 2020-yil yakunidan boshlab:

hisob va hisobot bo'yicha xalqaro standartlar (ISAR) printsiplari va talablari asosida korporativ oshkorlikni tatbiq etadi;

Global tashabbuskorlik hisobotiga (GRI) muvofiq hisobotlarni, shu jumladan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik masalalar bo'yicha chop etadi.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining uran qazib chiqarish va qayta ishlash bo'yicha davlat korxonasini hamda qimmatbaho metallar qazib chiqarish va qayta ishlash bo'yicha aktsiyadorlik jamiyati shaklidagi korxonani tashkil etish orqali "Navoiy KMK" DKni qayta tashkil etish to'grisidagi taklifiga rozilik berilsin.

3. Kon-metallurgiya tarmogini isloh qilish boyicha Respublika komissiyasi (keyingi o'rnlarda - Respublika komissiyasi) ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilsin.

Quyidagilar Respublika komissiyasining (A.N. Aripov) asosiy vazifalari etib belgilansin:

- a) 2019-yil 1-martga qadar "Navoiy KMK" DKni qayta tashkil etish va korporativ boshqarishning zamonaviy usullarini tatbiq etish, shuningdek mazkur qarorda nazarda tutilgan talablarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l Haritasi"ni tasdiqlash;
- b) kon-metallurgiya tarmoqining yirik korxonalarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirishning uzoh muddatli dasturlarini jadal amalga oshirish bo'yicha vazirliklar, idoralar va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- v) 2019-yil 1-mayga qadar kon-metallurgiya tarmog'ining yirik korxonalariga berilgan soliq va bojxona imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish va unifikatsiya qilish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- g) 2019-yil 1-iyulga qadar xalqaro moliya institutlari va konsalting tashkilotlarini jalb etgan holda quyidagilarning aktsiyalarini mahalliy va xalqaro fond bozorlarida ommaviy ravishda birlamchi va ikkilamchi joylashtirish orqali investorlarni jalb etishni nazarda tutuvchi Kon-metallurgiya tarmog'ining yirik korxonalarini isloh qilish va rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish:

"O'zbekiston metallurgiya kombinati" AJ - 2022 yilda;

"Olmaliq KMK" AJ - 2023 yilda;

Aksiyadorlik jamiyati etib qayta tashkil etiladigan "Navoiy KMK" DK - 2023 yilda;

- d) 2019-yil 1-dekabrga qadar "Navoiy KMK" DKni qayta tashkil etish bilan bog'liq jarayonlarni yakunlash hamda yangi tashkil etiladigan aksiyadorlik jamiyatidagi davlat ulushini professional boshqaruv kompaniyalariga tanlov asosida ishonchli boshqaruvga berish bo'yicha taklif kiritish.

Respublika komissiyasi a'zolariga mazkur qarorda belgilangan tadbirlarning samarali bajarilishi uchun shaxsiy javobgarlik yuklansin.

#### 4. "Navoiy KMK" DK Kuzatuv kengashi:

- a) O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (keyingi o'rnlarda - Agentlik) bilan birgalikda:  
-bir oy muddatda xalqaro maslahatchi va ekspertlarni jalb etgan holda "Navoiy KMK" DK mulklarini inventarizatsiya qilish bo'yicha komissiya va "Navoiy KMK" DK tizimiga kiruvchi alohida tarkibiy bo'linmalar bo'yicha ishchi guruhlarni shakllantirsin, ularning vazifalari sifatida "Navoiy KMK" DKning barcha aktiv va majburiyatlarini inventarizatsiyadan o'tkazish, shuningdek "Navoiy KMK" DK Kuzatuv

kengashiga va Agentlikka 2019 yil 1 mayga qadar muddatda ishchi guruhlarning oraliq hisobotlarini hamda 2019 yil 1 iyulga qadar ishchi guruhlar va komissiyaning yakuniy hisobotini taqdim etishni belgilasin; -inventarizatsiya yakunlari bo'yicha ikki oy muddatda xalqaro amaliyotda umume'tirof etilgan uslublar asosida "Navoiy KMK" DKning ishlab chiqarish va boshqa aktivlari qiymatini baholash, shuningdek "Navoiy KMK" DK mehnat jamoasi yashashi uchun zarur sharoitlar yaratilishini va ularga xizmat ko'rsatilishini ta'minlagan holda ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etmaydigan infratuzilma, ijtimoiy va boshqa ixtisoslashmagan obyektlarni xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotish va ixtisoslashgan davlat tashkilotlariga topshirish orqali ulardan samarali foydalanish bo'yicha takliflar kirlitsin;

b) O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qumitasi bilan birgalikda 2019 yil 1 martga qadar xalqaro maslahatchi va ekspertlarni jalg qilgan holda "Navoiy KMK" DKning balansida bo'lgan va zaxiralari qidiruv natijalari, mineral resurslar va ruda zaxiralari hisoboti Avstraliya kodeksi (JORC Code) standartlariga muvofiq qayta baholanadigan konlar ro'yxatini tasdiqlas; v) 2019 yil 1 mayga qadar "Navoiy KMK" DKning Kuzatuv kengashi tarkibiga etarli tajriba va malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni jalg etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taklif kirlitsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan birgalikda bir oy muddatda kon-metallurgiya tarmog'i yirik korxonalarining rejim-maxfiy bo'limlari xodimlarining shtat birliklarini optimallashtirishni nazarda tutuvchi ishlab chiqariladigan va sotiladigan oltin hajmlari ko'rsatkichlari bilan bog'liq maxfiylik rejimini bekor qilish choralarini ko'rsin.

6. Belgilansinki, kon-metallurgiya tarmog'i yirik korxonalarining oddiy aksiyalari bo'yicha dividendlarni hisoblash Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda belgilanadigan miqdorlarda har chorakda amalga oshiriladi.

## 7. Agentlik:

a) zarur bo'lganda, mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, kon-metallurgiya sohasidagi yirik korxonalarining davlat ulushini ishonchli boshqarish bo'yicha investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar bilan avval tuzilgan shartnomalarning qayta ko'rib chiqilishini hamda qayta rasmiy lashtirilishini ta'minlas;

b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga:  
ikki oy muddatda qonun hujjatlariga portlovchi moddalarni hamda ularni  
ishlab chiqarish uchun maxsus materiallar va asbob-uskulalarni ishlab  
chiqarish va sotish bilan shug’ullanadigan davlat korxonalarini davlat  
tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish imkoniyatini ko‘zda tutuvchi  
o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflarni;  
2019 yil 30 avgustga qadar xalqaro ekspertlar ishtirokida ishlab  
chiqilgan "Davlat mulkini boshqarish to‘g’risida"gi O‘zbekiston  
Respublikasining qonuni loyihasi kiritildi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alimxodjayev S.R. Konchilikda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish. O‘quv qo‘llanma. - T.: ToshDTU, 2013.
- 1.Ortikov A. Sanoat iktisodiyoti Darslik.-T.Sano-Standart, 2014.-304 b
2. Maxmudov E.X. "Korxona iktisodiyoti". O‘quv qo‘llanma - T.: TDIU, 2004.-208 b
3. Иванов И.Н., Беляев А.М. и др. Производственный менеджмент. Учебник для бакалавров.под.ред. И.Н. Иванова. -М.: Юрайт, 2013,-574 ст..
4. Зайцев Н.Л. Экономика промышленного предприятия. Учебник. -М.: ИНФРА-М, 2008,-414 ст.
5. Ulashev I.O., Atamurodov Sh.A. Korxona iqtisodi va menejmenti. -Т.: Tafakkur bo‘stoni, 2013

## **Qo‘srimcha adabiyotlar:**

1. SH.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iyy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. SH.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz O‘zbekiston NMIU, 2016
3. SH.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. Т.:O‘zbekiston,2017
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son Qarori 2017-2021 yillarda oliy ta’lim tizimini Kompleks rivojlantirish dasturi
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 7 fevraldag‘i “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini
6. Ibragimova S.A., Xashimova S.N., Tashxodjayeva M.T.“Iqtisodiyot va menejment” Uslubiy qo‘llanma –T.: ToshDTU, 2012-151b.
7. Алимходжаев С.Р., Якубова Д.М, Хашимова С.Н. “Экономика горной промышленности предприятия” Учебное пособие – Т.:ТашГТУ, 2010-111ст.

8. Alimxodjayev S.R., Ibragimova S.A. Menejment asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: ToshDTU, 2007-166b.
9. Экономика предприятия 3- изд. Учебник для вузов под.ред В.Я.Горфинкелья, проф.Швандара -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008- 718 ст.
10. Gruzinov V.P Экономика предприятия. Учебник. 2-еиздание. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008- 295 ст.
11. Гаипова М.Т., Ибрагимова С.А., «Экономика отрасли». Методическое указание- Т.:ТашГТУ, 2007 – 60 ст.
12. Козловский П.Р. и.др. Производственный менеджмент. Изд-во МГГУ, 2000.

## **Elektron resurslar**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
3. [www.ifmr.uz](http://www.ifmr.uz)
4. [www.ser.uz](http://www.ser.uz)
5. [www.aza.uz](http://www.aza.uz)
6. [www.ved.ru](http://www.ved.ru)
7. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

## MUNDARIJA

Кириш.....	3
1-mavzu.Korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakllari .....	5
2-mavzu.Sanoat korxonalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish.....	8
3-mavzu.Ishlab chiqarish omillari va ishlab chiqarish jarayoni.....	16
4-mavzu. Korxonaning asosiy fondlari vaishlab chiqarish quvvatlari.....	19
5-mavzu. Korxonaning aylanma mablag'lari .....	28
6-mavzu. Korxonaning mehnat resurslari .....	31
7-mavzu. Korxonaning axborot resurslari (Asosiy manbalar).....	36
8- mavzu. Ishlab chiqarish xarajatlari .....	41
9-mavzu.Korxona mahsulotlariga (xizmatlarini, ishlarini) narxning shakllanishi	49
10-mavzu. Korxona faoliyatining moliyaviy natijalari .....	51
11-mavzu. Korxonaning investitsion faoliyati.....	54
12-mavzu. Korxonaning innovatsion faoliyati.....	60
13-mavzu. Korxona faoliyatini boshqarish asoslari.....	63
14-mavzu. Sanoatning maqsadli yonalishlari .....	68
Foydalilanilgan adabiyotlar.....	73
MUNDARIJA.....	75

**Muharir: Sidikova K.A**

